

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TABIATSHUNOSLIK” FAKULTETI

“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta'lim yo'nalishi

IV-bosqich talabasi Shodieva Go'zal G'aniyevnaning

# Bitiruv malakaviy ishi

**MAVZU:** Umumta'lim maktablarining 6-sinflarida «janubiy amerika materigi» mavzisini o'qitishda didaktik o'yinlar ba tarqatma materiallardan foydalanish»

**Ilmiy rahbar:** dots. Yu. B. Raxmatov

Navoiy-2011 y.

---

**Umumta'lim maktablatining 6-sinflarida «Janubiy Amerika materigi» mavzisini o'qitishda didaktik o'yinlar va tarqatma materiallardan foydalanish.**

## **REJA:**

### **Kirish.**

**1.1 Didaktikani rivojlantirish xususidagi O'rta Osiylik mutafakkir va chet el olimlarining qarashlari.**

**1.2 «Janubiy Amerika materigi» mavzusini o'qitishda didaktik o'yinlar va tarqatma materiallarning maktab geografiya kursidagi o'rni va ahamiyati.**

**1.3 «Janubiy Amerika materigi» mavzusini o'qitishda didaktik o'yinlar va tarqatma materiallardan foydalanishning maqsadlari va vazifalari.**

**a) Ta'limiy**

**b) Tarbiyaviy**

**v) Rivojlantiruvchi**

**g) Milliy istiqloq g'oyasini singdirish**

## **2. Asosiy qism:**

**2.1 «Janubiy Amerika materigi» mavzusini o'qitish metodlari.**

**2.2 «Janubiy Amerika materigi» mavzusini o'qitishda no'naviy dars uslublarini qo'llash.**

**2.3 «Janubiy Amerika materigi» mavzisini o'qitishda didaktik o'yinlar va tarqatma materiallardan foydalanish xususiyatlarini o'rganish.**

**2.4 Didaktik o'yinlar va tarqatma materiallarning turlari**

**2.5 «Janubiy Amerika materigi»ning tabiiy sharoitini o'rganish darslarida didaktik o'yinlar va tarqatma materiallardan foydalanish.**

**2.6 «Janubiy Amerika materigi»ning iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlarini o'rganish darslarida didaktik o'yinlar va tarqatma materiallardan foydalanish.**

**2.7 «Janubiy Amerika materigi» mavzisini o'qitishda didaktik o'yinlar va tarqatma materiallardan foydalanishda sinfdan tashqari bajariladigan ishlar.**

## **Xulosa:**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

## **Kirish.**

### **Xamisha yaragil xalq xizmatiga Bezak bo'l, olamu, odam zotiga. Nizomiy Ganjaviy.**

Respublikamiz ravnaqi maktabga, xamda unda davrimizga munosib yangi insonning qanday ta'lim va tarbiya olayotganligiga boqlik ekanligini xayot ko'rsatib turadi. Xozirda maktablarimiz oldidagi eng dolzarb vazifa yurtimiz kelajagi uchun ma'lumotli, yuksak e'tiqodli, o'z Vataniga sadoqatli insonni tarbiyalashdir. Chunki ular demokratiya asosida tuzilgan mustaqil yurtda, jamoalarning xo'jalik mustaqilligi sharoitida o'zi va yurti uchun o'sib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy javobgarlikni xis qilgan xolda faol, izlanuvchan, yashay va ishlay oladigan bo'lishlari lozim. Bu esa avvalo o'qituvchilardan yuksak maxorat talab qiladi.

Mamlakatimiz xayotining barcha soxalarida bo'lganidek, ta'lim tizimiga xam keng qamrovli isloxotlar chuqur kirib bormoqda. Bu isloxotlardan kuzda tutilgan maqsad ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish mazmunini yaxshilash, pirovard natijada uni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy rivojlanishiga xizmat qildirishdan iboratdir.

«Ta'lim to'qrisida»gi qonunning 26-moddasida ta'limni ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga joriy etilsin,- deyilgan bo'lsa, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim berishning ilg'or texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va ta'lim jarayonini didaktik jixatdan ta'minlash talab etiladi.

Didaktik loyixalash inson ongining antitsipirik-oldindan payqash, ko'ra bilish qobiliyati bilan daxldor. Didaktik loyixa asosida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati yotadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limda eng zamonaviy xisoblangan pedagogik texnologiyalarni qo'llashga va mukammal o'rganishga erishish masalalariga xamda inson omiliga aloxida e'tibor qaratilgan bo'lib, uning negizida «tizimli yondashuv» yotadi.

### **Zamonaviy darsga qo'yilgan ayrim talablar.**

Darsga qo'yiladigan birinchi talab quyidagilardan iborat: o'quv va tarbiyaviy maqsadlarni aniq yo'lga qo'yish. Dars jangovor, xujumkor ruxda bo'lishi lozim.

Ikkinchi talab-ta'lim mazmuni va uslublarining zamonaviy fan va texnika darajasiga muvofiqlashatirish. Fanning asosiy qoidalarini

izlash yo'li bilan ochib berish, fan oldida turgan yangi muammolarni, uning istiqbolini yoritish, o'quvchilarning dialektik materialistik dunyoqarashini shakllantirish masalalarini qo'ya bilish, ularni qal etish yo'llarini ko'rsatish, o'z ish natijalarini tekshirib turish, ularning to'g'riligini isbotlash.

Uchinchi talab- o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish, ularni bilimlarni mustaqil o'rganish uslublari bilan qurollantirish.

To'rtinchi talab-ta'lim va tarbiya printsiplarini uzviy olib borish, ya'ni ta'lim berishning amaliy yo'nalishga ega bo'lishishga erishishidan, tanlangan kasb soxasida mexnat qilishga tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Zamonaviy darslarni uyushtirishga qo'yiladigan yana bir talab shundan iboratki, barcha didaktik masalalar darsda xal qilinishi, zinxor uyda bajarishga berilmasligi kerak. Biroq dars qanchalik yaxshi tashkil qilingan bo'lmasin, belgilangan mavzuni sinfda o'rganish bilan cheklanish yaramaydi. Darsda olingan bilim, agar u uyda mustaxkamlanmasa to'laqonli bo'lmaydi. Uy vazifasi- darsning mantiqiy davomi. Uning qanchalik puxta bajarilishi navbatdagi darsning mustaxkamligini, ya'ni muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Darsga qo'yilayotgan asosiy talab bugun boshqacha maqsad-xar bir darsning samarali bo'lishiga erishish.

O'qituvchining vazifasi shundan iboratki, u zamonaviy darsga qo'yiladigan barcha talablarni hisobga olgan xolda xar bir mashg'ulotni tashkiliy ko'ra bilish, bu bilan o'quvchining xafta davomidagi butun o'quv yili davomidagi ish qobiliyatini saqlab qolishi, ularga mustahkam va chuqur bilim berishi lozim.

Men ushbu malakaviy bitiruv ishimda geografiya fanini o'qitishda darsning qiziqarli va o'quvchilarning bilim darajasi samarali bo'lishini ta'minlashda «didaktik tarqatma materiallar»ning axamiyatini ochib berishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

Mavzuning dolzarbligini shundaki, o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar (ya'ni didaktik materiallar) ning o'rni beqiyosdir.

Bugungi kun pedagoglari uchun esa barcha sharoitlar etarli deb o'ylayman. Shuning uchun xam aynan didaktik tarqatma materiallarning geografiya o'qitishdagi axamiyatini ko'rib chiqishga qaror qildim.

Malakaviy bitiruv ishimni yozish jarayonida quyidagi vazifalarga e'tiborimni qaratdim.

1. Didaktik tarqatma materiallarning geografiya ta'limida tutgan o'rni va axamiyati.
2. Tarqatma materiallarining turlari va ularni dars jarayonida qo'llash.
3. Geografiya darslarida tarqatma materiallardan foydalanish usullari.
  - A) Tabiiy geografiyada;
  - B) Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada;

V) Amaliy geografiyada foydalanish yo'llari va shu kabi masalalarni bugungi geografiya fani uchun naqadar ahamiyatli va dolzarbligini va ularni dars jarayonida qo'llangandagi samarasini ko'rib chiqdim.

Malakaviy bitiruv ishimni bajarishda quyidagi metodlardan foydalandim: og'zaki bayon, ko'rgazmali, amaliy, oqzaki va munozara, yozma va baxs-munozara, savol- javob, tushintirish kabilar.

Malakaviy bitiruv ishim kirish, asosiy qism, xulosadan iborat.

Ma'lumotlar manbai bo'lib, Respublikamizdagi yuksak tajribaga ega o'qituvchilarning metodik qo'llanmalari, maqolalari, dars uslublari xizmat qildi.

Mavzumni ochib berishda ma'lum bir kamchiliklar xam uchrashi mumkin. Biroq men imkoniyat darajasida kengroq yoritishga xarakat qil dim.

Ushbu malakaviy bitiruv ishimni yozishda yaqindan yordam bergan *ilmiy raxbarim Kodirova. M, geografiya ukituvchim Abdieva. 3 va pedagogika o'qituvchim Alikulova. X* larga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

## **1.1 DIDAKTIKANI RIVOJLANTIRISH XUSUSIDAGI O'RTA OSIYOLIK MUTAFAKKIR VA CHET EL OLIMLARINING QARASHLARI.**

**Didaktika**- pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmoqidir. Didaktika - ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitida muallimning raxbarligi ostida amalga oshadigan o'quv jarayoni xamdir. Didaktikada shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, xar xil tipdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o'qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari xamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Didaktika yunoncha «didaktikos» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'qitish, o'rganish ma'nosini bildiradi. Yaqin va o'rta Sharqda **Xorazmiy, Qindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom** kabi mutafakkirlar ilmiy didaktika asoschilaridirlar. **Amos Kamenskiy, Shvetsariyalik pedagog I.G.Pestalotsti, nemis pedagogi A.Disterveglar** Evropada didaktikaning rivojlanishiga katta xissa qo'shdilar.

**Xorazmiy, qindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Tusiy** va ularning izdoshlari qarashlarining muxim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavxumlashuvi jarayoniga mana shu predmetning moxiyati va o'ziga xosligini tushinish sodir bo'lishi xamda shakllanishiga e'tibor berganlar. Ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar.

**Xorazmiy** shaxsning uzluksiz kamol topishi nazariyasining rivojlantirish borasida muxim xizmat qildi, induktiv va deduktiv tafakkurdagi aloxidalik xamda umumiylikning birligi printsiptini muayyanlashtirdi.

**Qindiy** substantsiyani barcha ilmiy bilimlarning bosh predmeti sifatida ko'rib chiqishda eng avvalo miqdor va sifatni xissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u substantsiyani bilishdan ham maxrumligini o'qtirdi. Olim o'zining didaktik g'oyalarida xissiy va ratsional bilishni ifodaladi. Xissiy bilish-yakka narsalarni bilishdan iborat bo'lsa, ratsional bilish-umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidladi. Uning fikricha hissiy bilish faqat aql uchun material beradi.

Sabablar haqiqatni bilishda va o'zining ana shu haqiqatga muvofiq hatti harakatlarini anglashda insonning aqliga ko'maklashadi. «Haqiqat» -deb yozgan edi Qindiy,-xar qanday narsani va uning barqarorligini bilishning sababidir, binobarin xayotdagi mavjud hamma narsa haqiqiyliги bilan mavjuddir. Haqiqatni bilish zarur va shunga ko'ra mavjud narsalarni bilish mumkin.

**Forobiy-** o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning xayoti xamda kundalik faoliyati bilan boqlikligi qoyalarni olqa surgan. Olim o'qitishning tajriba-ko'rsatmali, induktiv va deduktiv amaliy metodlariga aloxida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchining xayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangani qolda birlashtirgan. O'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodini ustun qo'yib o'quvchilarga materialni tushuntirishda nimalarga aloxida e'tibor berish qaqida eng muxim masalani fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubxalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va xokazolar bo'yicha o'qituvchilar uchun qimmatli tavsiyalarni bayon qilgan.

Forobiy bilish jarayonining va fandagi bilim shakllarini moxiyatini yoritgan. Uning fikricha ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish, fikrlashni takomillashtiradi xamda murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali o'tishi kerak. Mantiq ob'ekti anglashga qaratilgan va aql etadigan, moxiyatlar taxlil etiladigan fikrlash jarayonining to'qriligini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u narsalarni aniq bilishga yordam beradi.

Forobiy yozishicha yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun nazariya qaysi fanga taaluqli bo'lsada, quyidagi uchta shartga rioya qilishi shart.

1. Mazkur fan asosidagi hamma printsiplarni to'liq bilish;
2. Mana shu printsiplardan va mazkur fanga doir ma'lumotlardan tegishli xulosalar chiqara bilish;
3. Noto'qri nazariyani rad eta bilish va haqiqatni yolqondan farqlash, xatolarni to'qrilash uchun boshqa mualliflarning fikrlarini taxlil qila bilish;

Borliqning aks etishi sifatidagi xissiy bilish muammosi va eng asosiy masala - bilishning manbalari masalasi doimo Beruniy nazariy bilish faoliyatining diqqat markazida turdi. Olim bilishning nazariy asosini cheksiz va uzluksiz jarayon sifatida taxlil xamda talqin qildi. U qadimgi davr olimlari ishlab chiqqan bilishning ilmiy metodlarini rivojlantirib didaktik yo'sinda muxim xulosalar chiqardi. «O'qish va takrorlash orqali» -deb yozgan edi Beruniy-dunyoning tuzilishini, osmonning va erning shakllarini bilish astronomiya fani uchun qoyatda foydalidir.

**Ibn Sinoning** bilim orqali erishiladigan natijalari qaqidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida aloxida o'rin egalladi. Uning fikricha, buyumlarni chinakkam bilishga tashqi ko'rinishni taxlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan.

Mushoxada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir.

Aql rivojlanishning uchinchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi.

Ibn Sino aql deganda insonning to'g'ri ma'istodini, shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni insonning birlamchi to'g'ri ma'isog'lom fikrlashi, yaxshi yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlantiradigan kuch, deb ta'riflaydi. Aql insonning xatti-xarakatlarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, Ibn Sino aqlni ikki kategoriyaga ajratadi. Ularning biri nazariy aql bo'lib, borliqdagi umumiy narsalarning mohiyatini idrok etishdir, ikkinchisi esa amaliy aql bo'lib, buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'riladigan qobiliyatdir.

**Abdulla Avloniy** (1878-1934) o'zining barcha tadqiqotlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'ygan. Xususan u tarbiya bilan ta'limning birligi muammosini ishlab chiqdi.

**Xamza Xakimzoda Niyoziy** (1889-1929) esa o'z tadqiqotlarida tovushli savod o'rgatish metodini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotidagi asosiy g'oya o'qitish va tarbiyalashga kompleks yondashishi, yoshlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasini o'zaro bog'liq holda amalga oshirishdan iborat edi.

Yuqoridagi asarlarning nomlaridan va pedagogik fikrlardan ayon bo'ladiki, mazkur mualliflar didaktikaga o'qitish san'ati sifatida, shuningdek, o'ziga xos amaliy ko'nikma sifatida qaraganlar. Didaktika tushunchasini **Yan Amos Kamenskiy** (1592-1670) qam ana shu yo'sinda sharxlagan. Uning bu boradagi fikr muloxazalari 1657-yilda nashr etilgan «**hammaga hamma narsani o'qitishning universal san'ati ifodalangan buyuk didaktika**» nomli asarida bayon qilingan. Lekin Komenskiy didaktika faqat o'qitish san'atidagina emas, balki tarbiyalash san'atidan qam iboratligini qayd qilgan va tarbiya har tomonlama axloqiylik yo'nalishidagi (fe'l-atvorni shakllantirishning zarur sharti ekanini ham o'qtirgan.

Didaktikani yuqoridagicha tushinish XIX asr boshigacha, ya'ni taniqli nemis pedagogi va faylasufi **Iogan Genrix** (1776-1841) didaktikaning asosiy nazariyasini ishlab chiqqunicha davom etgan. Binobarin, u didaktikani pedagogikaga bo'ysinadigan tarbiyalovchi ta'limning yaxlit va ziddiyatsiz nazariyasi sifatida talqin qiladi.

**Gerbart** va xususan uning izdoshlari ana shu nazariyaning rolini hisobga olib didaktikaning asosiy vazifasini- darsda bayon qilinadigan material ekanini rad etdilar: Gerbart kontsepsiyasiga muvofiq o'qituvchi asosan o'quvchilarni yangi o'quv materialini bilan tanishtirishga doir xarakatlarini tahlil qilish lozim edi.

Bilim va malakalarni tarkib toptirish naqadar zarur bo'lsada, hozirgi didaktika ana shu soqa bilangina chegaralanib qola olmaydi.

Endilikda o'quvchilarni kamol toptirishda optimal natijalar beradigan o'qitish jarayonining ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurati tuqildi. O'quvchilarning kamol

topishi ta'lim jarayonida amalga oshishi sababli bilim va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan didaktik prinsiplar ma'lum natijalarni beradi. Lekin vazifa qandaydir natijalarga erishishdan emas, balki o'quvchilarni kamol toptirish uchun o'qitishning eng yuqori samaradorligini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun esa o'quv jarayonining qurilishini ishlab chiqish kerak. Didaktikada tarbiyalovchi dunyoqarashni shakllantirish masalalari quriladi, ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqillikni, tashabbuskorlikni va shaxsning boshqa ayrim sifatlarini tarbiyalash vazifalari taxlil qilinadi. Mana shunday muhim masalalarning ko'rib chiqilishi maktabdagi ta'lim tarbiyaning birligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'z-o'zidan ayonki, mazkur vazifani amalga oshirish uchun zarur ilmiy pedagogik asoslarni yaratish didaktika sohasidan ko'ra ko'proq tarbiya nazariyasiga taaluqlidir. O'qitish negizi yuksak axloqli qilib kamol toptirishdan iborat. Ana shunday harakatlarda o'qishga da'vat qilish o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlari va ta'limning metodlari masalalari boshqacha tushuniladi.

## **1.2 DIDAKTIK TARQATMA MATERIALLARNING GEOGRAFIYA TA'LIMIDA TUTGAN O'RNI VA AXAMIYATI.**

Mamlakatimiz o'z mustakilligiga erishgach respublika xo'jaligining barcha sohalarida bo'lganidek ta'limda ham tub islohatlar davri boshlandi.

Bu davr esa o'qituvchilarga ham ko'plab ma'suliyatni yukladi. Chunki mustaqillikkacha ta'lim tizimida asosan bir xillik hukmron edi. Yangi pedagogik texnologiya esa xar bir darsning bir-biridan qiziqarli o'tish imkoniyatini beradi. Xar bir darsning mazmun mohiyatidan kelib chiqib, darsda turli didaktik tarqatma materiallardan foydalanish mumkin. Bunday dars o'tish jarayonida o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashi talab etiladi. Bu talab esa darsning samaradorligini, uning sifatli bo'lishini, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini, birinchi galda maktab o'quv mashg'ulotlarini mustahkam egallab olishlarining manbaidir.

Har bir pedagogning ishga ijodiy yondashishini rivojlantirish juda muhimdir. Chunki dars jarayoni haryili bir xil ko'rinish, bir xil andoza, bir xil tipda emas, balki haryili har- xil usul va uslublardan qo'llagan holda tashkil etilishi lozim.

Yangi darsning mazmuni, egallagan qamrovi, unda ko'rgazmali qo'llanmalar va vositalarning ishlatilishiga qarab o'qituvchi turli didaktik tarqatma materiallarni qo'llashi mumkin.

Bu esa o'qituvchining izlanuvchanligini, o'z ustida ishlashini, ijodkorligini, darsni yanada keng qamrovli va qiziqarli qilib o'tishda tajribasini oshiradi.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchining darslari xilma-xil bo'ladi. Bunda tasviriy vositalar va ko'rgazmali qo'llanmalarning ahamiyati katta. Masalan, o'qituvchibir darsda yangi mavzuni tushuntirishdan avval 5-6 minut tezkor savollar orqali o'quvchilar bilimini, o'tgan mavzu va yangi mavzu yuzasidan so'rab chiqadi, o'zi fikrlarni to'ldiradi, o'quvchilarning diqqatini kartaga jalb etadi, doskaga chizmalar chizadi va hokazo.

Boshqa darsda o'qituvchidiafilmlar ko'rsatishi, harbir kadrqa berilganiga nisbatan kengroq va to'liqroq izoh beradi, darslikda berilmagan yangi ma'lumotlarni aytib o'tadi, so'ngra darsni mustahkamlash uchun o'quvchilarni baxs munozaraga chorlaydi, ularning mustaqil fikrlarini tinglab, o'zi to'ldirib boradi.

Agar o'qituvchio'z bilimini to'ldirib borishni to'xtatib qo'ysa, uning darslarida intizom yomonlashadi, darslari qiziqarsiz bo'lib qoladi, o'qituvchining obrusi o'z hamkasblari va o'quvchilar oldida keta boshlaydi.

1. Ko'p o'qituvchilar harbir darsini faqat mazmunli qilib emas, qiziqarli qilib ham o'tishga intiladilar. Bugungi kundagi zamonaviy darslarning talabi ham, mazmuni ham shunda. Chunki bugungi kun o'quvchilarining darsga chaqqonliklari, e'tiborlari, qiziqishlari nihoyatda katta. Bizning fanimizning bu boradagi imkoniyatlari nihoyatda ulkan darajada. Fanimizning o'ziga xos xususiyati ham qiziqarliligida bo'lsa ajabmas.

Buni biz hayotiy kuzatishlarimiz orqali ham tushuntirib, asoslab berishimiz mumkin.

Masalan, maktabni ancha ilgari bitirib ketgan kishilardan, maktab geografiyasi kursida nimalar esingizda qolgan deb so'rasak, ular sayyohlar haqidagi, tabiat sirlarini qanday ochilgan ekanligi haqidagi hikoyalarini, darsda ko'p kartochkalarga javob berganligini, turli xil krasvordlar echishgani, tabiatga bo'lgan ekskursiyalari haqida qiziqib aytib berishadi. Suhbat oxirida esa «Geografiya qiziqarli fan» degan gapni eshitamiz. Shunday ekan fanimizning yanada qiziqarli, samarador va albatta o'quvchilar yodida saqlanib qolishi uchun harakat qilishimiz lozim. Dars jarayonini yanada ko'proq ko'rgazmali qurollar, har-xil ko'rinishdagi kartochkalar, diagrammalar, testlar, krasvordlar, tezkor savollar, yozuvsiz xaritalar va hokazolar) tarqatma materiallar bilan boyitib borishimiz kerak. Geografiya o'qitishda ko'rsatmalilik, ommaboplik va qiziqarli bayon etish muxim rol o'ynaydi.

**N. N. Baranskiy** hech qaysi o'quv fani geografiyachalik ko'rsatmalilik va qiziqarlilikka muxtoj emas, deb hisoblar edi.

Ko'rsatmalilik va qiziqarlilik o'qitishning barcha metodlarida o'qituvchi hikoyasida, suhbatida, og'zaki va yozma tekshirishda, ayniqsa sinfdan tashqari ishlarda muayyan o'rin tutadi.

Qiziqarlilik darsda ham, ishda ham, geografiya tugragida ham, fakultativ mashqlarda ham, ayniqsa, o'lkashunoslik ishida hardoin qo'llanilishi kerak.

Tarqatma materiallardan dars jarayonida foydalanishning ijobiy tomonlari shundaki, bu jarayon o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv materialini egallash shakllaridagi o'xshashlik va tafovut qiladigan muhitlarni chuqurroq anglab olishda hamda o'z o'qituvchilik faoliyatini muvofaqiyatliroq tashkil etishda yordam beradi.

Tarqatma materiallarni, testlarni, diogrammalarni, ko'rgazmali qurolarni tayyorlash va ular bilan dars o'tish o'qituvchilardan ko'p vaqt va mahorat talab qilishi bilan birga o'quvchida ham zarur bilimlar bo'lishini taqazzo etadi. Tarqatma materiallarni tayyorlashda o'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyati, aqliy darajasi, bajara olish qobiliyatini ham e'tiborga olish zarur. Chunki o'quvchilar qanchalik bilimli va zukko bo'lsalar darsda shuncha faol qatnashadilar va darsga qiziqishlariyanada ortib boradi. Tarqatma materiallardan foydalanish o'quvchilarni faqat darsga qiziqishlarini emas, balki, ularning dunyoqarashini, ya'ni geografik dunyoqarashlarini, geografik madaniyatni shakllantirishda ham yordam beradi.

O'quvchilarning fanga bo'lgan geografik tushunchalarini shakllantirishda ham katta imkon beradi.

Geografik tushunchalarini shakllantirish jarayoni boshqarilishi xususiyatiga ega bo'lib, uni o'qituvchiamalga oshiradi. O'qituvchi qay yo'sinda va tartibda amalga oshirishi esa o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Geografik tushunchalar ta'lim jarayonida sekin-asta rivojlanadi. Darsni o'tish jarayonida esa shu narsaga e'tibor berish kerakki, dars ko'rgazmali qurollar, kartalar va tarqatmalar bilan boyib borishi kerak. Fikrlar mujassamlashib ketmasdan balki, aniq va qisqa bo'lishi kerak.

Geografik ob'ektlarni ko'rgazmali qurolarsiz va kartasiz o'rganish ularga xos bo'lgan belgilarni ajratishni birmuncha qiyinlashtirdi. Shuning uchun dars jarayonida kartalarni o'qish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Darsda faqat tarqatma materiallar, o'yinlar, testlar va diagrammalar emas, balki kartalar va yozuvsiz kartalarning ham ahamiyati katta. Dars jarayonida tarqatma materiallarning alohida-alohida shakllari va turlar haqida quyida, ya'ni keyingi boblarda alohida to'xtalib o'tamiz. Xullas, tarqatma materiallarning ahamiyati geografiya ta'limida nihoyatda katta ekan. Tarqatma materiallar o'quvchilarning mustaqil tayyorgarlik ko'rishlari, o'zlari ustida ishlashlari, qo'shimcha adabiyotlarni o'qishlari va izlanishlari uchun yordam beradi.

Dars jarayonidagi tarqatma materiallarga esa yozma yoki og'zaki javob berish mumkin. Ayrim o'quvchilar tushungan mavzusini, olgan bilimlarini aytib berolmaydilar, yozma javob berganda esa fikrini jamlab batafsil bayon qiladilar.

Tarqatma materiallar, ko'rsatmali qurollar bilan birgalikda rahamli materiallardan ham dars jarayonida foydalanadilar. Raqamli materiallar ham bilim olishning asosiy manbasiga kiradi. Raqamli materiallar geografik raqamlarni eslab qolish, yodda saqlashni, geografik birliklarni o'rganishda o'quvchilarga yordam beradi.

### **1.3 «Janubiy Amerika materigi» mavzusini o'qitishda didaktik o'yinlar va tarqatma materiallardan foydalanishning maqsadlari va vazifalari.**

Har qanday darsning o'z maqsadi bo'lib, o'qituvchi darsga kirishdan oldin bajaradigan ishlarni rejalashtirib olishi, o'z konspektiga maqsad qo'yishi dars davomida esa o'sha maqsadni amalga oshirish bundan chetga chiqmaslik kerak. Darsning maqsadi uning mazmuni asosida belgilanadi. Maqsad va mazmuni o'rtasida ma'lum bog'lanish mavjud.

Biz geografiya fanlarini o'qitishda «Janubiy Amerika materigi» mavzusini o'quvchilarga tushuntirayotganimda, maqsadimizni chuqur anglagan holda yondashishimiz kerak.

Umuman dars maqsadi 5 ta yo'nalishni o'z ichiga oladi. Geografiya fanlarini o'qitishda «Janubiy Amerika materigi» mavzusini o'qituvchilar o'quvchilarga o'rgatayotganida ham mana maqsadlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishlari kerak.

A) Darsning ta'limiy maqsadi o'quvchilarga nazariy bilim berish bo'lib, ishning mohiyatini, mazmunini yoritib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Geografiya fanlarini o'qitishda «Janubiy Amerika materigi» mavzusini tabiiy geografiya fani orqali tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning geografik asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, tabiiy resurslar va boyliklardan ehtiyojga yarasha foydalanish va ularning o'rnini muntazam ravishda to'ldirib, tabiatni doimo boyitib borish asosiy omil ekanligini, aholi turar joylari, xududning qishloq xo'jaligi, sanoati, yirik korxonalari hamda yirik shaharlarining ekologik holati haqida batafsil fikr yuritish darsning ta'limiy maqsadini tashkil etadi.

B) Darsning tarbiyaviy maqsadi. Geografiya fanini o'qitishda «Janubiy Amerika materigi» mavzusini o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'quvchilarni aqliy, estetik, ekologik, vatanparvarlik kabi tarbiyaga yo'naltiriladi. Bunda o'quvchilarga diyorumizning go'zal go'shalarini, ya'ni respublikamiz xududlaridagi Sitorai Moxi-Xossa, Sarmishsoy, Nurota, Kosim Shayx, Malik Robot, Registon, Shoximardon, Buxoro, Xiva, Samarqand kabi tarixiy va tabiiy yodgorliklar xaqida tushuntirish xam mumkin. Bundan tashqari O'rta Osiyolik buyuk qomusiy olimlar Abduxolik Gijduvoni, Said Baxrom, Said Mirkulol, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy,

Al-Fargʻoniy, Al-Xorazmiy, Imom Al-Buxoriy kabi yurtdoshlarning ekologik sohasida qilgan ishlari haqida xam tushuntirish mumkin.

V) Ravojlantirish.

Oʻquvchilarning dunyoqarashini oshirish va mustaqil fikrlashga oʻrgatish, erkin fikrlashni yuzaga keltirish, test bilan ishlash malaka va koʻnikmalarni rivojlantirishni oʻz ichiga oladi.

Dars davomida oʻqituvchi oʻquvchilardagi bilim, oʻquv malakalarini rivojlantirish, oʻquvchidagi aqliy, jismoniy xarakterini rivojlantirib, takomillashtirib boradi.

Geografiya fanini oʻqitishda «Janubiy Amerika materigi» mavzusini oʻrgatilayotganda oʻqituvchi bu mavzudan avval oʻrganilgan ekologik muammolarning tarkib topishi, tabiat bilan jamiyat oʻrtasidagi ekologik munosabatlar va dunyo miqyosidagi ekologik muammolar insoniyat uchun asosiy xavf-uning oldini olish mumkinmi kabi muammoli vaziyatlarini yuzaga keltirib, jumboqlarni echa olishga koʻmaklashishi va bu mazmundagi fikrlarni «Janubiy Amerika materigi» mavzusiga tadbiq etish mumkin.

Shuningdek, oʻquvchilarga tarqatma test savollari, testlar berib, ularning bilimlarini shakllantirish mumkin. Masalan quyidagicha testlar tuzish mumkin.

Janubiy Amerika mamlakatlari ichida ekologik vaziyatning yomonligi boʻyicha qaysi davlat birinchi oʻrinda turadi:

A) 3- chi Argentina davlati;

V) 2- chi Braziliy davlati;

S) 1- chi Peru davlati. haqiqiy javob S.

V. Javob xam haqiqatga yaqinligi uchun oʻquvchilar belgilashi mumkin, lekin Braziliy davlati emas, respublika xisoblanadi.

G) Shuningdek, darsning oʻquvchilarni maʼlum bir kasbga yoʻnaltirish maqsadi xam aniqlab olinishi kerak.

Kelajakda xar bir oʻquvchi maʼlum bir kasbni egalashi uchun unda kasblar haqida etarlicha tasavvur boʻlishi kerak. Shundagina oʻquvchi oʻz oldiga biror bir kasbni egallashni maqsad qilib qoʻyadi.

Respublikamiz viloyatlarida juda koʻp umumtaʼlim maktablari tashkil etilgan boʻlib, ularda geografiya fanlaridan oʻqitilib kelinmoqda. Geografiya fanlarini oʻqitishda «Janubiy Amerika materigi» mavzusi oʻrgatilayotganda oʻqituvchi Janubiy Amerika materigi xududida joylashgan sanoat korxonalarining atroflarida, axoli turar joylarida, daryo, koʻl, suv omborlari va havuzlar atroflaridagi ekologik vaziyatning rivojlanishi juda taraqqiy etgan boʻlib, bu soxalarda mutaxassislar haligacha tanqis boʻlib kelyapti. Istiqbolli soxalarga oʻquvchilarni qiziqtirish-oʻqituvchining eng muxim vazifalaridan biridir.

D) eng so'nggi maqsat o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish va ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.

O'quvchilarga mustaqillikka xurmat, mustamlakachilikka nafrat tuyg'usini shakllantirish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan.

Ta'lim va tarbiyaning bosh vazifalaridan biri jamiyatdagi barcha toifa kishilarni, xususan O'zbekiston aholisining qariyb 70 foizini tashkil qiluvchi yoshlarni ona Vatanga mehrlanib qilib tarbiyalashdir. Bu o'z navbatida zamonaviy bilimlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi.

Har bir mavzu o'qitilishda o'qituvchining pedagogik mahorati birinchi o'rinni egallaydi. O'qituvchi dars maqsadidan kelib chiqqan holda darsni yangi pedagogik texnologiya asosida o'tkazsa ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dars maqsadiga erishishda o'qituvchi o'qitish metodlarini juda mukammal bilishi ham o'rin egallaydi.

Har bir o'qituvchi yoki biz bo'lajak o'qituvchilar ham bir darsga kirishdan avval, o'z maqsadimiz va vazifalarimizni chuqur anglagan holda tayyorgarlik ko'rishimiz lozim. Shundagina biz o'qituvchilarni darsimizga qiziqtirib, o'zimizning jamiyatga kerakli inson pedagog bo'lib etishimizga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

## **DIDAKTIK TARQATMA MATERIALLARNING TURLARI.**

Geografiya ta'limida ham boshqa ta'lim yo'nalishlaridagi kabi tarqatma materiallarning har xil turlaridan foydalanish mumkin. Tarqatma materiallarni- kartochkalar, testlar, diagrammalar, krasvordlar, turli xil o'yinlar, o'quv ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanish keng tavsiya etiladi.

Quyida esa o'sha tarqatma materiallarning turlariga, ayrimlariga bafurja, ayrimlariga qisqa ta'rif berib o'taman.

Birinchi navbatda eng ko'p qo'llaniladigan tarqatma material turlaridan kartochkalarga ta'rif berib o'tamiz. Kartochkalarni iqtisodiy, tabiiy, amaliy geografiyadan yoki bo'lmasa alohida biror mavzu yuzasidan tayyorlash mumkin.

Geografiya darslarida o'quvchilar bilan geografik xaritalarni yaxshiroq o'rganish maqsadida ham kartochkalardan foydalanish mumkin. Buning uchun iqtisodiy xaritaning yoki yozuvsiz xaritaning biror qismi yoxud bir mamlakatning iqtisodiy yoki yozuvsiz xaritasi yopishtirilgan bir necha kartochkalardan dars davomida foydalaniladi. Kartochkalarda yopishtirilgan xaritaning mazmuniga qarab, yozuvsiz xaritalar bo'lsa, mavzuning mazmuniga qarab bir necha savollar yozilgan bo'ladi. Kartochka olgan o'quvchi bir necha minut davomida tayyorlanib, savollarga javob berishi lozim, jumladan kartochkada quyidagicha savollar bo'lishi mumkin.

1. Kartochkada qaysi iqtisodiy rayon tasvirlangan.
2. Sanoat belgilaridan foydalanib, asosiy kimyo sanoati markazlarini belgilang.
3. Qazilma boyliklarining kesma belgilarini yozuvsiz xaritagacha yopishtirib chiqing.

Kartochkalardan foydalanishning bu usuli o'quvchilarning xaritani qanchalik o'rganganligini va ularning iqtisodiy xaritalar bilan ishlay olishlarini aniqlash uchun katta yordam beradi. Ayrim vaqtlarda iqtisodiy xarita yoki yozuvsiz xaritadagi geografik ob'ektlarni sonlar bilan belgilab, shu joylarning nomini iqtisodiy ta'riflab berishni talab qilishi mumkin.

Geografiya darslarida iqtisodiy va yozuvsiz xaritalar bilan ishlash o'quvchilarning bilim darajasini, tafakkurini va mustaqil ishlash qobiliyatini o'stirishga katta yordam beruvchi omillardan biridir.

Tabiiy geografiyada asosan topshiriq-kartochkalardan foydalaniladi. Topshiriq-kartochkalar tarqatiladigan materiallar turlaridan biri bo'lib, o'qitish jarayonini aktivlashtirishda, o'quvchilar bilimini samaraliroq hisobga olishda o'qituvchiga yordam beradi. U darsda

so'raladigan o'quvchilar sonini ko'paytirishga imkon tug'diradi. Umumlashtiruvchi takrorlash darslarida topshiriq- kartochkalardan foydalanish mazkur mavzudan nechta kartochka tayyorlangan bo'lsa, shuncha o'quvchidan so'rab kurishga imkon beradi. Bundan tashqari, o'qituvchi sharoitga qarab, o'quvchiga kartochkadagi hamma savolga emas, balki savollarning biriga daftarda yoki varaq qog'ozda yozma javob berishni buyurish mumkin.

O'quvchilarga kartochka bilan ishlashni buyurishdan oldin o'qituvchi bunday ishni bajarish tartibi-qoidasi bilan o'quvchilarni tanishtirishi lozim. Shuni unitmaslik kerakki, kartochalar bilan ishlaganda atlasdan foydalanish mumkin, javoblar qisqa bo'lishi kerak agar topshiriq yozma javobni talab etsa, savollarni daftarga ko'chirib yozib o'tirmay, savollarning tartib, nomerini yozib, qisqacha javobni yozish kifoya.

Quyida shunday topshiriq- kartochkalardan misollar keltiriladi.

### **1- Kartochka.**

#### ***I- topshiriq***

1. Tog'larning rel'yef shakllari: tog' tepasi, cho'qqisi, dara, tog' yonbag'ri kabilarni shartli belgilariga qarab o'qib bering.

2. Ural tog'larini quyidagi reja bo'yicha og'zaki tasvirlab bering.

A) Qaysi materikda joylashgan?

B) Qanday yo'nalishda cho'zilgan?

V) Asosiy balandliklari qancha?

G) Tog'larning qaysi yon bag'irlari tikroq?

D) Bu tog'lardagi eng baland nuqtalarning koordinatalari va balandligini ayting.

#### ***II-topshiriq.***

1. Volga daryosining o'ng va chap irmoqlarini sanab bering.

2. Toshkent shahrining geografik koordinatalarini aniqlang.

#### ***III-topshiriq.***

So'nmagan vulqonning geografik koordinatalari:  $52^{\circ}$  sh.k. va  $162^{\circ}$  sh.u. Bu vulkanning nomi nima?

### **2-Kartochka.**

#### ***I-topshiriq.***

1. Yer kurrasida to'rtta okean bor. Yarim sharlar tabiiy kartasidan foydalanib, tinch okean qaysi materiklarning qirg'oqlarini yuvib turishini yozing.

2. Sizga eng yaqin dengiz va siz yashaydigan joydan qaysi tomonda va qancha masofada joylashganligini ayting.

#### ***II-topshiriq.***

Koordinatalari quyidagicha bo'lgan nuqtalarning qaysi materiklarda joylashganligini yarim sharlar kartasidan foydalanib aniqlang.

1. 20 janubiy kenglik va 20 g'ariyiy uzunlik.
2. 20° janubiy kenglik va 120° sharqiy uzunlik.
3. 40° shimoliy kenglik va 40° sharqiy uzunlik.
4. 60° shimoliy kenglik va 120° g'arbiy uzunlik.
5. 0° kenglik va 60° g'arbiy uzunlik.
6. 0° kenglik va 20° sharqiy uzunlik.

### ***III- topshiriq.***

Iqlimi siz yashab turgan joyning iqlimiga qaraganda iliqroq bo'lgan ikkita shaharning va sovuqroq bo'lgan ikkita shaharning nomini ayting.

Pedagogika ma'lum qonuniyatlarni oydinlashtiradigan va barorlashtirish hamda pedagogik shu normalarni belgilashda yordam beradigan didaktik hodisalarni o'rganishda kuzatish, pedagogik eksperiment, intervyu olish, anketalashtirish, pedagogik hujjatlarni taxlil qilish, statistik taxlil metodlaridan foydalaniladi.

Kuzatish va eksperiment orqali olib boriladigan tadqiqotlarda o'quvchilarning bilim darajasini oshiradigan asosiy vositalardan yana biri testlardir.

Didaktik testlar harxil yo'sinda tekshirishlarga, yozma ishlarga va o'qitish natijalarini nazorat qilishning og'zaki shakllariga o'xshaydi va eksperimental tadqiqotlarning natijalarini baholash uchun xizmat qiladi. Testli tarqatmalar o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning boshqa usullaridan o'zining aniqligi va obektivligi, shuningdek bilim darajasini o'lchash uchun qulayligi bilan farqlanadi.

O'quvchilarni faqat dars jarayoni bilan chegaralab qo'ymasdan balki psixologik testlar ham berib turish kerak. Psixologik testlar avvalo qobiliyat va shaxs testlari o'quvchilarning ilmiy, aqliy iqtidoriga, xarakter xislatlariga, hissiy kechinmalariga xulq motivlariga doir axborotlar olishni ta'minlaydi.

Didaktik testlar topshiriq- kartochkalaridan tashqari eng oddiy tarqatmamateriallarni tayyorlashda didaktik savollar berish usuli juda qulay usul hisoblanadi. Savollarni oddiy deganimiz bilan savollar muammoli tarzda ham berilishi mumkin.

Savol - tugallanmagan gap va unda so'roq yoki ifoda bilan almashingan qandaydir bo'lak mavjud bo'lmaydi. Agar savol o'quvchini mazkur xolatni, misolni, faktni, hodisani yoki jarayonni tushinishga yo'naltirilgan bo'lsa, u muammoli - didaktik savol bo'ladi.

Muammoli - didaktik savol aqliy faollikka, uni o'rgatishga rahbarlikning eng muxim vositalaridan biridir.

Tarqatma- savollar o'quvchilarga ma'lum bilish xarakterlarini bajarishni taklif qiladi va tabiiy bilish vaziyatini yaratadi. O'qituvchi o'quvchilarni yangi faktlarga, voqea, hodisa yoki jarayonlarga ro'baru qiladi. U bunda nimani aniqlash kerakligini oldindan biladi.

O'quvchilar yangi sharoitda, o'zlari duch kelgan yangi hodisalar, narsalar, jarayonlarda ishni nimadan boshlashni bilmaydilar. Shunga ko'ra o'qituvchining tarqatgan savollari mushkulni oson qiladigan, o'quvchilarga yangi sharoitga o'rganishda, to'g'ri bilish xarakterlarini topishda yordam beradigan narsadir.

Tarqatma savollar qanday nuqtai nazarni ifodalaydi. «qancha?» degan savol narsaga miqdor nuqtai nazaridan qarashni bildiradi. «Nima uchun?» degan savol bilan esa sababiy bog'lanishlar aniqlanadi, «qaerda?» degan savol vositasida narsaning holati tekshiriladi.

Xulosa qilib aytganda didaktik savollar - nuqtai nazar va bilish xarakterlarini bajarishga rahbatlantirish yo'li hisoblanadi.

Mavzularning kattaligi bo'yicha tarqatmasavollar tor va keng xakteri bo'yicha nazariy va amaliy savollarga bo'linadi.

Tarqatma savollar har xil ta'limiy maqsadlarda qo'llaniladi. Ular o'qituvchi gapirayotgan yoki darslikda yozilgan ma'lumotlar qanchalik muvaffaqiyatli idrok etilayotganini aniqlash zarur xollarda eng qulay omil hisoblanadi, faqat o'quv jarayonini boshqarishda emas, balki o'rganilayotgan mavzuni o'zlashtirish jarayonini faollashtirishda hamqo'l keladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, didaktik tarqatma savollar odatda o'zining to'liq ifodalanishida javobning ko'p elementlarini va hatto og'zaki talqin yoki so'zlar guruhini o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchini aqliy zo'riqishdan qutqaradi va o'qishning ta'limiy hamda kamol toptirish saviyasini pasaytiradi.

O'rganilayotgan mavzuga doir tayyorlangan tarqat masavollar tizimi o'quvchilarning aqliy faoliyatiga qarab tayyorlanishi kerak, chunki bu tarzda savollar o'quvchining aqliy zo'riqishini taqazo etadi. O'quvchining bunday zo'riqishi qanchalik kam va mustaqilligi qanchalik ko'p bo'lsa, o'quvchilarning aqliy kamolot yo'lidan borishi shunchalik samarali bo'ladi. Ana shu yo'lda o'quvchilarning aqli va yangi taassurotlarini anglash, yangi ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyati tarkib topadi.

Lekin o'quv jarayoni hech qachon faqat tushunish bilan chegaralanmaydi va cheklanmaydi ham. O'rganilgan mavzu puxta o'rganib qolinmasa o'qitish bekor ketadi. Shuning uchun harbir mavzuga doir didaktik tarqatmasavollar tizimida o'rganilgan bilimlarni mustaxkamlashga va ulardan foydalanish yo'llari hamda usullarini yaratishga xizmat qiladigan xilma-xil savollar muhim o'rin tutadi.

O'quv jarayonida tarqatma material sifatida o'quv ko'rsatmali qo'llanmalardan ham foydalanish mumkin. O'quv ko'rsatmali qo'llanmalardan o'rganiladigan xossa va ob'ektlar haqida aniq tasavvur hosil qilish maqsadida asosiy bilim manbalaridan biri sifatida foydalaniladi. Bu o'quvchilarning geografik qonuniyatlarini yaxshi tushinishga va kuzatish qobiliyatining o'sishiga yordam beradi.

O'quv - ko'rsatmali qo'llanmalardan tarqatmamateriallar tayyorlashda kartografik qo'llanmalarni ahamiyati katta. Kartografik qo'llanmalar yerning tasvirini (tabiiy geografik ob'ekt va hodisalar, ularning joylanishini) shartli kichraytirilgan holda va muayyan kartografik proektsiyada ifodalaydi.

Topografik kartalarni o'rganishda kartografik qo'llanmalardan foydalanishni ko'rib chiqaylik. Bunda shartli belgilar yordamida o'quvchilar o'rganilayotgan hududning tabiiy sharoiti, tabiiy ob'ektlar va boshqalarni bemalol o'qib bera oladilar. Yoki bo'lmasa shartli belgilar yordamida hikoya tuzishlari mumkin. Bu esa o'quvchilarning so'z boyligini oshirib, ularni topografik kartalarni o'qishga o'rgatadi.

Tarqatma materiallar tayyorlashda o'quv ko'rsatmali qo'llanmalarning bir turi hisoblangan muntazam doimiy qo'llanmalardan ham foydalanish mumkin. Muntazam doimiy qo'llanmalarni qo'llash amaliy ish darslarida qulay imkoniyatlar beradi. Chunki amaliy ish darslarida o'quvchilar mustaqil o'zlari ishlaydilar, o'qituvchi esa faqat yo'l-yo'riq ko'rsatib, o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning yo'nalishlarini tushuntirib boradi va o'quvchilarga berilgan tarqatmalardagi topshiriqlar yordamida diogrammalar, jadvallar, hattoki grafiklar ham tuzadilar.

Tarqatma materiallarning bir turi sifatida natural qo'llanmalardan ham foydalanish mumkin. Natural qo'llanmalardan o'rganiladigan geografik ob'ekt va hodisalarning aslidan iboratligi uchun hamalohida ahamiyatga egadir. O'quvchilar turli sezgi a'zolari yordamida narsalar haqida aniq tasavvur hosil qiladilar. Masalan, o'quvchilarga gerbariyalar, tuproq namunalari, turli kolleksiyalar beriladi. O'quvchilar bular yordamida yaqqolroq tasavvurga ega bo'ladilar va darsni esda saqlab qolishi ham bir muncha osonlashadi. O'quvchilar darsda qancha ko'p narsa o'rganib, darsni eslab qolsalar bu darsning samaradorligi va o'qituvchining yutug'ini belgilaydi.

Geografiya o'qitish jarayonidagi kuzatish va tajribalar shuni ko'rsatadiki, geografik o'yinlar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan qiziqishini, havasini oshiradi. Bu o'yinlarni krasvord, savol - javob, topishmoq tarzida ham berish mumkin. Geografik o'yinlarni tarqatma material usulida taxlash yanada qulay va samarali usul bo'ladi.

Tarqatma material ko'rinishidagi geografik o'yinlar o'quvchilar saviyasini alohida-alohida aniqlashga yordam beradi. Agar tarqatma material har bir o'quvchiga bittadan berilsa, bu o'quvchilarning mustaqil tayyorlanishiga yordam beradi va o'quvchilarning bir-biriga halaqit berishlariga yo'l qo'ymaydi. Lekin bunday o'yinlar ham o'quvchilarning bilim saviyasi, vaqti va qobiliyatlariga qarab berilishi kerak. Chunki o'quvchilarni darsga qiziqitira olgan ta'lim yo'nalishi, geografiya ta'limi samaradorligini oshirishga va o'quvchilarning geografiya sohasida ma'naviyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi

## **TABIY GEOGRAFIYA DARSLARIDA DIDAKTIK TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANISH USULLARI.**

Ta'lim jarayonida o'quvchilar muayyan bilimlar, ko'nikma va malaklarni egallaydilar. Didaktikada tarqatma materiallardan foydalanish, o'qituvchi rahbarligida turli usul va uslublar yordamida o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalari bilan qurollantirishda hamda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda o'zining samarali natijalarini ko'rsatadi. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish esa hozirgi sharoitda dolzarb vazifalardan biridir. Dars jarayonini tashkil qilishda mavzuni ochib berish uchun har tomonlama yondashish kerak. Ta'limdagi muvaffaqiyatni dars o'tish davomidgi qiziqarlilik, o'ziga xoslikni ta'minlaydi.

Tabiiy geografiya darslarida qo'llangan tarqatma materiallarning ham o'ziga xos afzalliklari bor, u yoki bu tushunchani o'quvchi ongida shakllantirishda har bir tarqatma material turlarining o'ziga xos o'rni bor. Masalan, o'quvchilar tabiiy ob'ektlarni o'rganishda, ularni tasavvur qilish, yodda saqlab qolish, ularni tasvirlab berish kabilarni tarqatma materiallar orqali o'rganish mumkin. Tarqatma materiallarni qay tarzda dars jarayonida qo'llanishi quyidagi dars taxlillarida o'z aksini topgan.

**Fan: Tabiiyot.**

**Sinf: 5**

**Darsning mavzusi:** Quyosh sistemasidagi sayyoralar.

**Darsning maqsadi:**

- A) O'quvchilarga mavzuni yoritish bilan ekologik, ma'naviy tarbiya berish.
- B) Quyosh, sayyoralar, ularning osmon gumbazida joylashuvi haqida boshlang'ich bilim va ko'nikmalar hosil qilish.
- V) O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ona yerimizga sadoqat ruhida o'stirish.
- G) O'quvchilarni geografiyani, astranomiya, fizika va boshqa fanlar bilan bog'lik ekanligiga qiziqtirish.
- D) O'quvchilarga milliy istiqloq ruhini singdirish.

**Dars tipi:** Aralash tipdagi

**Darsning uslubi:** Og'zaki.

**Darsning usuli:** Savol - javob.

**Dars didaktikasi:** Rasm, jadval, tezkor savollar.

**Darsning borishi:**

- A) Tashkiliy qism, o'quvchilarni tinchlantirish, salomlashish.
- B) Psixologik iqlim yaratish.
- V) Yangi mavzu bayoni.

### **REJA:**

1. Quyosh sistemasi.
2. Sayyoralar.
3. Sayyoralar tabiati.

O'qituvchi dastlab o'quvchilarni darsning rejasi bilan tanishtiradi va reja asosida mavzuni yorita boshlaydi.

Quyosh sistemasi - quyosh atrofida katta - kichik, son-sanoqsiz osmon jismlari aylanib yuradi. Quyosh va uning atrofida aylanib yuruvchi barcha osmon jismlari birgalikda quyosh sistemasini tashkil etadi.

- Qani kim biladi nechta sayyora bor?
- 9ta.

Juda to'g'ri quyosh sistemasida yirik osmon jismlari bo'lgan 9 ta sayyora va ular atrofida aylanib yuruvchi 40 dan ortiq tabiiy yo'ldoshlar, mayda osmon jismlari bo'lgan 40 mingtagacha astroidlardan, 2000 ga yaqin kometalar va boshqa turli xildagi osmon jismlari mavjud.

Sayyoralar-bulutsiz qorong'i tunda osmonni bir necha kun kuzatib borsangiz, bazi bir «Yulduz» boshqasiga nisbatan o'zgarib qolishini o'zgarib qolishini payqaysiz. Go'yoki bunday

«Yulduz» boshqalari orasida sayr qilib yurgandek tuyuladi. Sayr qilib yurgandek tuyulgan «Yulduz»lar sayyoralardir.

Sayyoralar yulduzlar kabi o'zidan nur kelayotgan yorug'lik nuri sayyoralarni yoritadi. Biz esa ulardan waytayotgan quyosh nurini ko'ramiz. Quyosh atrofida aylanib yurgan sayyoralar quyidagicha nomlanadi: Merkuriy, Venera, Er, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun va Pluton.

Quyosh va sayyoralarning bir-biriga nisbatan siyosiy o'lchamini rasmda ko'rishi mumkin. Katta-kichikligi, Quyoshdan uzoq-yaqinligidan tashqari, sayyoralar quyosh atrofini bir marta aylanib chiqishga ketgan vaqt, ulardagi bir sutka qancha vaqt davom etishi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Buni quyidagi jadvaldan ko'rishingiz mumkin.

Sayyoraning nomii	Quyoshdan o'rt. uzoq.	Diametri	Quyosh atr. ayl. davri.	O'z uqi atr. ayl. davri.	Tabiiy yuldosh. soni
Merkuri	58 mln. km	4880 km	88 kun	176 kun	0
Venera	108 mln.km.	12100 km	225 kun	243 kun	0
Yer	150 mln. km	12800 km	365 kun	24 soat	1
Mars	228 mln. km	6775 km	687 kun	24.5 soat	16
Yupiter	778 mln. km	138300 km	12 yil	10 soat	17
Saturin	1427 mln. km	120800 km	30yil	10 soat	5
Uran	22880mln. km	4900 km	84 yil	soat	2
Neptun	45000 mln	50100 km	165 yil	16 soat	8
Pluton	60 mln. km	3700 km	248 yil	6.5 kun	2

Jadvalda sayyoralarning quyoshdan o'rtacha uzoqligi (diametri), quyosh atrofini bir marta aylanib chiqishiga ketgan vaqt (davri), o'z o'qi atrofida aylanish davri hamda tabiiy yo'ldoshlari soni keltirilgan.

Sayyoralarning quyosh atrofidan va o'z o'qi atrofida aylanish davri erdagi yil, kun va soatga qiyoslab olingan.

Yerdan o'zga sayyoralardan 5 tasi qadim zamonlardan kishilarga ma'lum bo'lgan. Yunoncha Merkuriy deb atalgan sayyorani bobokalonlarimiz Utorit, Marsni-Mirrix, Venerani-Zuhro, Yupiterni-Mushtariy, Saturnni esa Zuhul deb yuritishgan. Bu sayyoralarni bevosita yerdan asbobsiz kuzatish mumkin. Shuning uchun ham ularni qadimgi vaqtda odamlar bilishgan.

Boshqa sayyoralar keyinchalik, masalan: Uran sayyorasi 1781 yilda, Neptun sayyorasi 1846 yilda, quyoshdan eng olisdagi Pluton sayyorasi esa 1930 yilda topilgan.

Sayyoralar tabiati - hozirgi paytda yerdan boshqa barcha sayyoralarda hayot yo'qligi malum. Ularda xayot uchun zarur bo'lgan sharoit mavjud emas, Bu sayyoralarda esa faqat jonsiz tabiat hukm suradi.

Yerdan o'zga sayyoralardagi tabiatning ko'rinishi qanday?

Quyoshga eng yaqin va kichik bo'lgan Merkuriy sirtini havo o'rab turmaydi, ya'ni uning atrofi bo'shlig'idan iborat. Shuning uchun ham bu sayyora sirtida kunduzi o'rtacha 345°C issiq, kechasi esa 80°C sovuq bo'ladi.

Quyoshdan uzoqligi bo'yicha 2-o'rinda turadigan Venera sayyorasi asosan karbonat angidrid (SO<sub>2</sub>) gazi bilan o'ralgan.

Uning zichligi erdagi havo zichligidan 90 marta katta. Bu sayyora sirtidagi harorat 470°C gacha issiq bo'ladi.

Mars sayyorasi esa siyrak SO<sub>2</sub> va boshqa gazlar bilan qoplangan. Marsda yillik o'rtacha harorat 60°C sovuq. Undagi sharoit boshqa sayyoralarga nisbatan hayot uchun bir muncha yaqin. Shunday bo'lsada, Marsda ham tirik mavjudotlar yo'qligi aniqlangan.

Bundan ancha olisda bo'lgan Yupiter, Saturn, Uran, Neptun va Pluton kabi sayyoralarda ham yerdagi kabi hayot uchun sharoit yo'q. Ular quyoshdan juda uzoq, hamda ularni o'rab turgan gaz juda siyrak bo'lgani uchun bu sayyoralarda haddan tashqari sovuq bo'ladi.

Sayyoralar orasidan Saturnning tashqi ko'rinishi o'zgacha, uning belida qalqansimon ajoyib "Belbog'i" bor. Aslida "Belbog'" bo'lib ko'ringan halqa emas, balki bir yassi tekislik bo'ylab aylanayotgan son-sanoqsiz mayda osmon jismlaridir. Ularning g'uj bo'lib aylanishdan halqa bo'lib ko'rinadi.

Bu uslub noan'anaviy dars usuli bo'lmasada, zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslanmasada, bu dars usulning afzalliklari juda ko'p. Chunki jonli nutq o'quvchi ongiga tez yetib boradi, uni ma'lum xulosalarga olib keladi, o'qituvchining jonli nutqi puxta bilim, ko'nikma va malaka manbai bo'lishi bilan birga, juda katta tarbiyalovchi kuchga ham ega.

O'qituvchi dars jarayonida o'quv materiallarini og'zaki bayon qilib berishi bilan chegaralanib qolmasdan, har xil ko'rsatmali qurollar (rasmlar va jadvallar) dan ham foydalaniladi.

Dars reja asosida tushuntirib berilgach, o'quvchilar bilan darsni mustahkamlab, savol-javob o'tkazishi kerak. O'qituvchi savollarni og'zaki yoki kartochkalardan berishi mumkin. Savollar quyidagicha bo'ladi:

1. Nechta sayyora bor?
2. Merkuriy sayyorasining qadimiy nomi nima?

3. Marsni bobokalonlarimiz nima deb atashgan?
4. Uran sayyorasi nechanchi yilda topilgan?
5. Yer quyosh sistemasidagi nechanchi sayyora?
6. Nechta sayyorani yerdan asbobsiz kuzatish mumkin?
7. Pluton sayyorasi qachon topilgan?
8. Sayyoralar va yulduzlarning farqi nimada?
9. Quyosh sayyorami yoki yulduz?
10. Eng ko'p tabiiy yo'ldosh qaysi sayyorada?
11. Qaysi sayyora tashqi ko'rinishdan boshqalarga o'xshamaydi?
12. Sayyoralarning qaysi biridagi sharoit hayot uchun bir muncha yaqin?
13. Quyosh sistemasidagi yana qanday jismlarni bilasiz?
14. Quyoshdan eng uzoq sayyorani bilasizmi?

Savollar shu tarzda davom etib, dars mustahkamlanadi. Agar savollar tarqatma materiallar tarzida berilsa, o'qituvchi uchun ham bir muncha qulayliklar yaratadi. Chunki tarqatma materiallar o'qitish jarayonini faollashtirishda, o'quvchilar bilimini samaraliroq hisobga olishda o'qituvchiga yordam beradi. Tarqatma materiallar darsda so'raladigan o'quvchilar sonini ko'paytirishga imkon tug'diradi.

O'quvchilarga qulayligi esa, o'quvchilar atlasdan foydalanishi, daftarga yozib keyin javob berishi mumkin bo'ladi.

**Uyga vazifa:** "Voyajer-2" nomli fazo kemasining sayyoralararo sayohatini mustaqil o'qib kelish.

Osmon jismlarini kuzatib, xulosalarini daftarga yozib kelish.

**Fan:** Boshlang'ich tabiiy geografiya.

**Sinf:** 5.

**Darsning mavzusi:** Joy tarixi. Masshtab.

**Darsning maqsadi:**

- A) O'quvchilarni o'z millatiga, ona Vataniga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash.
- B) Joy tarixi, joyning rasmda, aerokosmik suratlarda tasvirlanishi, tarixning shartli belgilari va masshtab haqida bilim berish.
- V) Bolalar nutqi va qobiliyatini o'stirish.
- G) O'quvchilarni geografiya bilan birgalikda arxitektura sohalariga qiziqtirish.
- D) Milliy mafkura tamoyillarini o'quvchilar ongiga singdirish.

**Darsning tipi:** Yangi tushunchalar hosil qilishi va tahlil qilish.

**Darsning uslubi:** Ko'rgazmali- amaliy.

**Darsning usuli:** Seminar

**Dars didaktikasi:** Biron joyning tarixi, kompas, planiet, shartli belgilar jadvali, rasmlar boshqa ko'rgazmalar.

**Darsning borishi:**

A) Tashkiliy qism.

V) Psixologik iqlim yaratish.

V) Yangi mavzu:

**Reja:**

1. Joy plani nima?

2. Plan masshtabi.

3. Joyning planini olish.

A) Qutbiy.

B) Azimutal.

V) Marshrut bo'yicha.

**Tayanch tushunchalar.**

Joy plani, aerofotosurat, shartli belgilar, plan masshtabi, nomli masshtab, chiziqli masshtab, sonli masshtab, planshet, azimut, kompas.

O'quvchilarda yangi tushunchalar hosil qilish va ularni taxlil qilishda eng yaxshi usul bu tayanch tushunchalarni o'quvchilarga berishdir.

Tayanch tushunchalar orqali dars o'tish usuli o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatibgina qolmay psixologik jihatdan dars o'tishning «oltin qoida»si hissiyot-diqqat-iroda-idrok-xotira-tafakkur qatorini yaxshi ishlashga olib keladi.

O'quvchilar oldingi darsda tayanch tushunchalarni uyga vazifa qilib olganliklari uchun darsga mustaqil tayyorlanib kelganlar. Shuning uchun, dars bayonini ochib berishda o'quvchilarga savol berib ularning javoblarini tinglab, ayrim joylarini to'ldirib borishni lozim deb topdim. O'quvchilar zerikib qolmasliklari uchun savollar qisqa bo'lishi kerak.

1. Joy plan nima?

-Joyning plani-ma'lum bir joyning yuqoridan ko'rinishini kichraytirib tasvirlovchi chizmadir.

2. Aerofotosuratlardan nima uchun foydalanamiz?

- Maydon kichikroq bo'lgan joyni yerdan turib fotosuratga olish yoki uning rasmini chizish mumkin. Lekin joyning yon tomonidan olingan fotosurat yoki chizilgan rasmlar joyning katta kichikligini, undagi obyektning bir-biridan uzoq yaqinligini to'g'ri aks ettirmaydi, shu bois joyning tasvirini qog'ozda to'g'ri tushirishda samolyot yoki vertolyot yordamida olingan aerofotosuratlardan foydalaniladi.

3. Joy planida shartli belgilarning ahamiyati qanday?

-Olingan fotosurat hali joyning plani emas, buning uchun turli shartli belgilar yordamida fotosurat, qayta ishlanadi. Bino, o'tloq, daraxt, dala, yo'l kabi obyektlar planda tegishli shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Bu shartli belgilar yordamida joyning planini o'qish mumkin.

4. Plan masshtabi nima?

-Plan masshtabi- plandagi joyning aslidan necha marta kichraytirib ko'rinayotganini bildiradi.

5. Masshtablarning ifodalanishiga ko'ra turlarini sanab bering.

-Nomli masshtab, chiziqli masshtab va sonli masshtab.

6. Nomli masshtabni tushuntirib bering.

-Bunday masshtablarda joyning plandagi tasviri necha marta kichraytirilganligi so'z bilan ifodalangan bo'ladi. Masalan, 1 sm- 20 m.

7. Chiziqli masshtab qanday bo'ladi?

-Planda masshtab chiziqcha va uning har bir santimertiga to'g'ri keladigan joyning masofasi ko'rsatilishi mumkin. Bunday masshtab chiziqli masshtab deyiladi.

8. Sonli masshtab qanday ifodalanadi?

-Joyning masshtabini, masalan, 1:2000 ko'rinishda ham ifodalash mumkin. Bu sonli masshtab deb, yuritiladi. Ko'rsatilgan sonli masshtabda joyning tasviri 2000 marta kichraytirib ifodalangan.

9. Planshet nima?

-Planshet- to'g'ri to'rtburchak shaklidagi fanerga mahkamlangan kompasdan iborat moslamadir.

10. Planshet qanday tayyorlanadi?

-Planshet tayyorlashda kompasni fanerga shunday mustaxkamlash kerakki, bunda kompasning «Sh» va «J» chizig'i faner chekkasiga paralell bo'lsin. Odatda kompas fanerning yuqori chap chekkasiga mahkamlanadi. Tayyorlangan planshetga chizma qog'ozi yopishtirib qo'yiladi.

11. Azimut nima?

-Azimut- joyning shimolga yo'nalgan tomoni bilan shu joydan ob'yektga yo'nalgan tomon orasidagi burchakdir.

12. Qutbiy plan olishni tushuntirib bering.

-Kichikroq ochiq joyning planini olishda qutb deb atalgan bir nuqtadan turib atrofdagi ob'yektlar planshetga tushiriladi. Odatda qutb nuqtasi sifatida plani olinayotgan joyning o'rtarog'i tanlanadi. Bunda planshet qutb nuqtasiga qo'yiladi va orentirlanadi.

13. Azimutal plan olish jarayonini tushintirib bering.

-Azimut- kompas yordamida aniqlanadi. Odatda kompasda gorizontning asosiy tomonidan tashqari, soat ko'rsatkichi yo'nalishi bo'yicha 0 dan 360 gacha darajalangan raqamlar ham ifodalangan bo'ladi. Bunda  $0^\circ$  ifodasi «Sh» (shimol) harfiga to'g'ri keladi.

14. Marshrut bo'yicha plan olish usulidan qay vaqtda foydalanish mumkin?

-Qutbiy yoki azimutal plan olish usullaridan foydalanish uchun plani olinayotgan ob'ektlarning barchasi bir nuqtadan ko'rinib turishi kerak. Bir nuqtadan barcha ob'ektlar ko'rinmaydigan kattaroq joylarning planini olishda marshrut bo'yicha plan olish usulidan foydalaniladi.

Darsning bayoni ochib berilgach, joyning plani uchun berilgan shartli belgilarni o'quvchilar bilan o'rganamiz. Bunda dars qiziqarli bo'lishi uchun o'quvchilarga shartli belgilar chizilgan ko'rgazmalar ko'rsatiladi. Ular esa navbat bilan bu belgilar qaysi obyektga tegishli ekanligini aytishadi.

Masalan.




Yaka daraxt o'tloq, haydalgan yerlar poliz, siyrak o'rmon shartli belgilar o'rganib bo'lingach, darsni mustaxkamlash uchun o'quvchilarga tarqatma materiallardan topshiriq beriladi.

### 1- kartochna

**I-topshiriq.** Agar turistlar to'dasi borayotganlarda qutb yulduzini o'zlaridan o'ng tomonda qurgan bo'lsalar, ular qanday yo'nalishda ketganlar?

**II-topshiriq.** Shimoliy sharq azimut bo'yicha necha gradusga ega?

**III-topshiriq.** Quyidagi shartli belgiga mos keladigan obektni toping.




### 2-kartochna.

**I-topshiriq.** Yer yuzida shunday bir nuqta borki, u yerda qutb yulduzi qoq tepangizda turadi, hamma tomoningiz janub, sutka, kecha va kunduzga bo'linmaydi,  $360^\circ$  ga aylanib butun dunyoni sayohat qilishingiz mumkin. Bu qaerda ekanligini ayta olasizmi?

**II- topshiriq.** Janubi- g'arb azimut bo'yicha necha gradusga ega?

**III- topshiriq.** Quyidagi shartli belgiga mos obektни aniqlang.



- Buta
- O'tloq
- Siyrak o'rmon


### 3-kartochka.

**I-torpshiriq.** Topishmoqni toping.

Odamsiz mamlakat, uysiz shahar, daraxtsiz o'rmon, suvsiz daryo qaerda bo'lishi mumkin.

**II-topshiriq.** Magnit qutblari nimaga qarab aniqlanadi?

**III- topshiriq.** Quyidagi shartli belgi qaysi obektga tegishli?




- Quduq
- Buloq
- Daryo

Daryo yuqoridagi kabi mustahkamlangach, o'qituvchi darsga yakun yasab, faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, ularni rag'batlantiradi. So'ngra uyga vazifa beriladi.

Uyga vazifa:

Berilgan shartli belgilar yordamida hikoya tuzish. Masalan,



**Fan:** Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi.

**Sinf:** 6

**Darsning mavzusi:** Janubiy Amerika materigining tabiat zonalari.

**Darsning maqsadi:**

- A) Darsni ochib berish bilan birga, o'quvchilarga ekologik tarbiya berish.
- B) Yevrosiyo materigi, materikning tabiat zonalari, o'simligi, tuprog'i va hayvonot olami haqida bilim, tushunchalar berish.
- V) O'quvchilarning dunyo qarashini kengaytirish go'zallikni sevishga, tabiatni sevishga o'rgatish.
- G) Geografiya, botanika, zoologiya kabi fanlarning, sohalarning o'zaro bog'liqligiga qiziqtirish.
- D) Milliyligimizni bolalar ongiga singdirish.

**Dars tipi:** Aralash.

**Darsning uslubi:** Og'zaki va munozara.

**Dars usuli:** Savol- javob.

**Darsning didaktikasi:** Yarim sharlar kartasi, globus, yozuvsiz karta, atlas tarqatma materiallar va qiziqarli materiallar.

**Darsning borishi:**

- A) Darsning tashkiliy qismi; salomlashishi o'quvchilar davomatini kuzatish, o'quvchilarni darsga tayyorlash.
- B) Qiziqarli ma'lumotlar.
- V) Yangi mavzu bayoni.

**Reja:**

1. Arktika, subarktika va mo'tadil mintaqalarning tabiat zonalari.
2. Subtropik, tropik, subekvatorial va ekvatorial mintaqalarning tabiat zonalari.
3. Janubiy Amerika tog'laridagi balandlik mintaqalari.

Janubiy Amerikaning tabiat va uni tashkil etuvchi komponentlar nihoyatda xilma-xil. Tabiat komponentlari kenglik, zonalik qonuniga amal qilgan holda joylashgan. Materikda shimoliy yarim sharga xos bo'lgan hamma geografik mintaqalar va tabiat zonalari mavjud. Ular ham o'zlarining geografik tarqalishida kenglik, zonalik qonuniyatiga amal qiladi. Quyida biz birgalikda tabiat zonalarining bir necha xillari bilan tanishamiz.

Dars o'qituvchining kirish so'zi bilan ochilgach, o'quvchilarni qiziqtirish uchun mavzu «o'yin» tarzida olib boriladi. Bu o'yinda o'quvchilar davra bo'lib o'tirishadi. Dastlab, biror o'simlik yoki hayvon nomi aytiladi.

Boshlovchi bola o'zining o'ng tomonidagi o'rtog'iga biror o'simlik yoki hayvon nomini aytadi. O'rtog'i darrov shu o'simlik yoki hayvonga tegishli bo'lgan zonani aytadi. Keyin bu bola

ham biror hayvon yoki o'simlikni aytadi, uning o'ng qo'shnisi zona va yana o'simlik yoki hayvonni aytadi. Shu zaylda davra aylanaveradi.

Masalan,

-Mox- lishaynik

-Subarktika, pixta, kedr.

-Tayga; zarang, juka.

-Aralash o'rmonlar, buk, eman.

-Keng bargli o'rmonlar.

Mabodo biror o'quvchi darhol aytolmay qolsa, hamma bola jo'r bo'lib, birdan o'ngacha sanashadi. Shunda ham javob topolmagan bola davradan chiqadi. Uning yonidagi javob beradi. Davra birin-ketin kamayaveradi. Eng hozir javob bola g'olib bo'ladi.

Yoki bo'lmasa o'qituvchi tezkor savollarni aytib turadi, o'quvchilarni III guruhga bo'lib, har bir guruh navbat bilan javob berib chiqadi. Javob berolmay qolgan guruh ball ololmay qoladi.

Tezkor savollar quyidagicha bo'ladi.

Savol: Arktika mintaqasida yog'in miqdori qancha?

Javob: 100-300 mm.

Savol: Qaysi mintaqaning asosiy tuproq tipi tundra- gil, torfli-gilli?

Javob: Subarktika mintaqasining.

Savol: Tayga zonasida qanday tuproqlar keng tarqalgan?

Javob: Podzol tuproqlar.

Savol: Tayga zonasida qanday daraxtlar o'sadi?

Javob: Qarag'ay, pixta, tilog'och.

Savol: Aralash o'rmonlar materikning qaysi qismida joylashgan?

Javob: Materikning g'arbiy va sharqiy qismida.

Savol: Keng bargli o'rmonlarga o'simliklarning qanday jarayoni xos?

Javob: Ko'p yorug'liligi.

Savol: Keng bargli o'rmonlarda «qizil kitob»ga kirgan qanday hayvonlar bor?

Javob: Zubr, ussuri yo'lbarsi.

Savol: Dasht va o'rmon- dasht zonalarining qulayligi nimada?

Javob: Bu zonalarining iqlim sharoiti arpa, qand, lavlagi, kartoshka, kungaboqar kabilarni yetishtirish uchun qulay.

Savol: Chalacho'l va cho'l zonolari qaysi mintaqaga xos?

Javob: Tropik mintaqaga.

Bu ikkala usul ham o'quvchilarni hozir javoblikka, tezkorlikka, epcilikka o'rgatadi. Hozir javoblik esa o'quvchilarda eslash qobiliyatini o'stiradi.

I. Darsni mustahkamlash jarayonida-atlasdagi hayvonlarning geografik tarqalishiga taaluqli o'rmonlar zonalarining o'ziga xos hayvonlarini aniqlash va ularni qaysi turlarga mansub ekanligini aytib berish.

II. O'rmonlarning maydoni qisqarib ketishiga qanday omillar sabab bo'lmoqda. O'quvchilarning erkin fikr va mulohazalari.

III. Mo'tadil va subtropik, tropik mintaqalarning chalacho'l va cho'l zonalarini qaerlarda joylashganligini kartadan aniqlash.

IV. Mo'tadil, subtropik va tropik cho'llarining bir-biridan farqi nimada?

V. And tog'laridagi balandlik mintaqalari sonini aniqlash.

VI. Kartadan And, Braziliya va gviana yassi tog'liklarining eng baland cho'qqilarini topish va shu kabi savollar orqali dars mustahkamlab olinadi va o'qituvchi guruhlarni baholab va rag'batlantirib, uyga vazifa beradi.

#### Janubiy Amerikaning tabiat zonalari jadvali.

	<b>Tabiat zonalari nomlari</b>	<b>Geografik o'rni</b>	<b>Tuproqlari</b>	<b>O'simliklari</b>	<b>Hayvonot dunyosi</b>
	Nam ekvatorial o'rmonlar zonasi Selva	Amazonko, Orinoko pasttekisligi va Braziliya, Gviana tog'ligining unga tutash joylari	Podzollashgan laterit tuproqlar	Palma, ulkan seyba, bertoletsiya, shokolad daraxti, geveya, sekropit, liana, epifit, ananas	otselot, cho'chqa pekar, vampir, yaguar, butazor iti, nosuxa, kinkaju, koendu, grunkasilionlar, tamandua, aguti, kapibara, sebidlar, yalqov maymunlar.
	Subekvatorial o'rmonlar zonasi	Braziliya Gviana tog'liklarining shimoliy yonbag'irlari	Qizil tuproqlar	Ananosdoshlar, qirqquloq, orxideyalar, palmalar, mavsumiy bargini to'kadigan daraxtlar	Kunduzgi va tungi kapalaklar, maymunlar, cho'chqalar, sayyoh, bog'bon chumolilari
	Siyrak o'rmonlar va savannalar	Subekvatorial mintaqadagi pasttekisliklar va yassi	Qizillaterit qizil-jigar rang	G'alladosh o'tlar, soyabonsimon mimozalar,	Katta chumolixo'r puma, atselop, pampa mushugi,

	Kampos	tog'lar		molochaylar, kaktuslar, taxmok, karnauba palmasi, sago, karnauba daraxti, algarrabo, kebracho	yolli bo'ri, pampa mushugi, pampa va magellan tulkisi, bronenosetslar, viskacha, Amerika tulkusi, nandu.
	Subtropik dasht Pampalar	Savannalarda n janubda subtropik iqlim mintaqasida joylashgan	Qizil ferralit va qora tuproqlar	Chalov, qorachayir, yovvoyi suli, yovvoyi tarqi, g'alladosh o't o'simliklari	Termitlar, Viskacha, Tuka-tuka, tuka-tuka mushugi, yaguar, puma. Botqoqlik qunduzi va nutriya, to'ti, kalibri qushi, ilonlar, kaltakesaklar.
	Chala cho'llar va cho'llar	Materikning janubiy qismida mo'tadil mintaqada joylashgan	Sur-qo'ng'ir bo'z tuproqlar	G'alladosh o'tlar, kserofit butalar, past bo'yli kaktuslar, bolax	Ilonlar, kaltakesak, echkiemarlar, toshbaqalar, guana, kayman, anakonda, mayda zirhlilar
	And tog'larining balandlik zonalari.	Materikning ga'rbiy qismidagi tog'li hudud	O'rmon-qo'ng'ir	Qirqquloqlar, lianalar, daraxtsimon qirqquloqlar, bambuk, magnoliyalar	Lamalar, vignon, ko'zoynakli ayiq, guinishilla, kondor qushi, asl lama va alpakuni, guaiako.

**1. Janubiy Amerikaning eng past nuqtasi qayerda?**

A) Valdes ya. o. B) Guahira ya. o. C) Pampa D) Amazoniya

**2. And tog'larining yadrosi qaysi bosqich tuzilmalaridan iborat?**

A) Kaledon- Gersin B) Baykal C) Kimmeriy-Laramiy D) Alp

**3. Janubiy Amerikaning qaysi qismini to'rtlamchi davrda muz bosgan?**

A) Gviana tog'ligi B) Amazoniya C) And tog'lari D) Patagoniya

**4. And, Braziliya va Gviana tog'larining o'rtasida qaysi tekislik joylashgan?**

A) Lyanos-Orinoko B) Pampa C) Beni-Mamore D) Amazoniya

**5. Beni-Mamore, Pantachal, Gran-Chaka, Daryo oralig'i tekisliklari qaysi tekislikka kiradi?**

A) Lyanos-Orinoko B) Ichki tekisliklar

C) Amazoniya D) Patagoniya

**6. Janubiy Amerikaning katta qismi qaysi iqlim mintaqasida joylashgan?**

A) Tropik B) Subtropik C) Mo'tadil D) Ekvatorial

**7. Mo'tadil mintaqa havo massalari janubiy Amerikaning qaysi qismlarida bo'ladi?**

A) Shimoliy B) Braziliya yassi tog'ligi

C) La-Plata tekisligi D) Patagoniya

- 8. Shimoliy yarim sharda Janubiy Amerikaning qaysi qismlari joylashgan?**  
 A) Amazoniya B) Lyanos-Orinoko va Gviana yassi tog`ligi  
 C) Braziliya yassi tog`ligi D) Ekvador And tog`lari
- 9. Quyidagi dengiz oqimlarining qaysi biri sovuq oqim hisoblanadi?**  
 A) Gviana B) Braziliya C) Peru D) Antil
- 10. Janubiy Amerikaning qaysi qismlariga yog`in ko`p yog`adi?**  
 A) Braziliya yassi tog`ligi B) Janubiy Amazoniya  
 C) G`arbiy Amazoniya va Patagoniya And tog`I  
 D) La-Plata past tekisligi
- 11. Janubiy Amerikada qaysi iqlim mintaqasi 2 ta?**  
 A) Ekvatorial B) Subekvatorial C) Tropik D) Subtropik
- 12. Nima uchun Janubiy Amerikaning g`arbiy qismida izotermalar meridianlar bo`yicha yo`nalgan?**  
 A) Materikning maydoni kichik B) O`simlik qoplami turlicha  
 C) Yog`in miqdori turlicha  
 D) Relyef va okeandan keladigan shamollar ta`sir qiladi
- 13. Janubiy Amerikaning qaysi qismida daryolar qordan to`yinadi?**  
 A) Braziliya yassi tog`ligida B) Gviana yassi tog`ligida  
 C) Karib And tog`larida D) Patagoniyada
- 14. Quyidagi balandlik mintaqalarining qaysi birida ekvatorial alp o`tloqlari (paramos) tarqalgan?**  
 A) Terra kalancha B) Terra templada C) Terra fria D) Terra Elada
- 15. Braziliya va Gviana yassi tog`ligida qaysi tabiat zonalari joylashgan?**  
 A) Subekvatorial o`rmonlar B) Nam ekvatorial o`rmonlar  
 C) Mavsumiy nam o`rmonlar D) Aralash o`rmonlar
- 16. Savanna va siyrak o`rmonlar zonasi Janubiy Amerikaning qaysi qismlarida tarqalgan?**  
 A) Lyanos Orinoko, Braziliya tog`larining ichki qismlari, ichki tekisliklarning shimoliy qismi  
 B) La-Plata past tekisligi C) Janubiy Amazoniya D) Quyi Amazoniya
- 17. Patagoniya And tog`larining g`arbiy qismida qanday tabiat zonasi joylashgan?**  
 A) Aralash o`rmonlar B) Igna bargli o`rmonlar  
 C) Keng bargli o`rmonlar D) O`rmon – dasht
- 18. Amerika qit`asiga birinchi bo`lib kimlar borgan?**  
 A) Kolumb B) Amerigo Vespucci C) Beruniy D) Vikinglar
- 19. Kaledon burmalanishda Shimoliy Amerikada qaysi tog`lar ko`tarilgan?**  
 A) Shimoliy Appalachi tog`lari B) Meksika yassi tog`ligi  
 C) Bruks tizmasi D) Makkenzi tog`I
- 20. Janubiy Appalachi tog`lari qaysi bosqichda ko`tarilgan?**  
 A) Baykal B) Kaledon C) Gersin D) Laramiy


**Uyga vazifa:** O`tilgan hamma mavzularni takrorlab, esga olish maqsadida, 3 ta guruhga Janubiy Amerikaning 3 ta mavzusidan krasvord berishni lozim deb topdim.

I. Guruhga: **Janubiy Amerika materigining yer yuzasi tuzilishi krasvordi.**

Bo`yiga:

1. Qirg`oqlari o`yilib ketgan yarimorol.
2. O`rta dengizga turtib chiqqan yarimorol.
5. Sitsiliya orolidagi harakatdagi vulkan.
7. Janubiy Amerika materigining janubidagi tog`lar.

Eniga: 3. Janubiy Amerika materigidagi 5 ta davlat territoriyasi bo`ylab cho`zilgan yosh tog`.




4. Islandiya orolidagi harakatdagi vulqon.
7. Atlantika okeani va O'rta dengiz oralig'idagi yarimorol.
8. Janubiy Amerika materigining eng chekka shimoliy nuqtasi.
9. Rossiya xududidagi yarimorol.

**II. guruxga: Janubiy Amerika materigining re'lefi, dengizlari, qirg'oq tuzilishi krasvordi.**

- Bo'yiga:*
1. Skandinaviya yarimorolida keng tarqalgan qirg'oq tipi.
  3. Janubiy Amerika materigining sharqida joylashgan orol.
  4. Qora dengizga turtib chiqqan yarimorol.
  7. Barents va oq dengizlar o'rtasidagi yarim orol.
  8. Dunyodagi eng katta va baland tog'liq.

- Eniga:**
2. Vulqon va geyzerlarga boy bo'lgan orol.
  5. Bolqon va kichik osiyo yarim orollari oraliqidagi dengiz.
  6. Osiyo va Evropa qit'alarini ajratuvchi tabiiy chegara.
  7. Vulqonlarga serob bo'lgan ikki dengiz oraliqidagi yarim orol.
  9. Dunyodagi eng sho'r dengiz.
  10. Apennin yarim orolidagi vulqon.



**III.guruxga. Janubiy Amerika materigining daryolari va ko'llari krasvordi.**

*Buyiga:* 1. Tibet tog'ligidan boshlanuvchi daryo.

2. Alp tog'laridan boshlanib O'rta dengizga quyiladigan daryo.

3. Evrosiyoda kattaligi bo'yicha 2- o'rinda turuvchi ko'l

4. Bengaliya ko'ltiga quyiladigan daryo.

5. Evropa qitasidagi eng uzun daryo.

8. Takla- Makon cho'lini kesib o'tuvchi daryo.


*Eniga:* 2. Alp tog'laridan boshlanib dengizga quyiladigan daryo.

6. Janubiy Amerika materigining shimoliy-g'arbidagi chuchuk suvli ko'l.

7, 9. Amur daryosining irmoqlari.

9. Janubiy Amerika materigining sharqidagi sersuv daryo.

11. Evrosiyoning janub-sharqidagi Janubiy Xitoy dengiziga quyiladigan daryo.



<b>11</b>					

### Janubiy Amerika daryolari

Daryo nomi	Boshlanish joyi	Quyilish joyi	Uzunligi	Havzasi ning maydoni	To'yinish tipi	Irmoqlari
Amazonka	And tog'lari, Braziliya, Gviana tog'liklari	Atlantika okeani	6480 km	7050 ming km <sup>2</sup>	Qor va yomg'ir suvlari dan	Riu-Negru, Madey Ukayali, Maran'on Tapajas
Parana	Braziliya tog'ligi	La-Plata qo'ltig'i	4400 km	4250 ming km <sup>2</sup>	Yomg'ir, qor suvlari dan	Paranaiba, Riu-Gr Iguasu, Paragvay Seti-Kedas
Orinoko	Gviana tog'ligi	Atlantika okeani	2500 km	1000 ming km <sup>2</sup>	Yomg'ir suvlari dan	Kasikyare

**Fan.** O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi.

**Sinf :**7

**Darsning mavzusi:** O'rta Osiyo iqlimi.

**Darsning maqsadi:**

- A) O'quvchilarni tabiatni sevish, tabiatni asrash ruhida tarbiyalash.
- B) O'rta Osiyo iqlim, iqlim xususiyatlari haqida o'quvchilarga, bilim berish.
- V) O'quvchilarni vatanga muhabbat, ona erimizga sadoqatli qilib o'stirish.
- G) O'quvchilarni fanga qiziqtirish.
- D) O'quvchilarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash.

**Darsning tipi:** Aralash tipdagi.

**Darsning uslubi:** Tushuntirish.

**Darsning usuli:** Munozara.

**Dars didaktikasi:** O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy kartasi, atlas, dunyo iqlim kartasi, ko'rgazmalar, jadvallar, tarqatma materiallar.

**Darsning borishi:**

- A) Tashkiliy qism, psixologik iqlim yaratish.
- B) Kundalik yangiliklar, xabarlar.
- V) Yangi mavzu bayoni.

## REJA:

1. Iqlimga tasir ko'rsatuvchi omillar.
2. Siklonlar va antitsiklonlar.
3. O'lka iqlimining tarifi.
4. Insonning iqlimga tasiri.

O'rta Osiyo iqlimi juda rang barangdir. O'lkadagi bunday rang barang iqlimiy sharoit asosan quyidagi omillar tasirida vujudga kelgan. Joyning geografik o'rni va quyosh radiatsiyasi, havo massalari harakati, joyning relef tuzilishi. O'rta Osiyo materigi Yevro Osiyo materigining deyarli qoq markazida joylashgan. O'lkaning bunday joylashuvi yer kurrasining aynan shu kengliklarida joylashgan boshqa xududlarga nisbatan quyoshdan ko'proq radiatsiya olinishini taminlaydi.

Quyoshning yer yuzasiga tushadigan nur energiyasi va issiqligi quyosh radiatsiyasi deb ataladi. Quyosh radiatsiyasining miqdori muayyan vaqt mobaynida  $1\text{sm}^2$  yer yuzasiga kalloriya miqdorida tushgan nurli energiya bilan ifodalanadi.

Quyosh nurlarining bir qismini havodagi suv bug'lari, changlar, shuningdek bulutlar yutadi va tarqatib yuboradi. Natijada atmosferada tarqoq radiatsiyasi vujudga keladi.

Quyoshdan yer betiga bevosita yetib kelgan radiatsiya to'g'ri radiatsiya deyiladi. Yer yuzasiga tushadigan tarqoq radiatsiya bilan to'g'ri radiatsiya birgalikda yalpi radiatsiya deb ataladi.

Atmosfera havosining ko'p xususiyatlari yer yuzasi bilan bog'liqdir. Havoning nam yoki quruq, chang to'zonli yoki tiniq bo'lishi uning qanday joy ustida turganiga yoki harakat qilganiga bog'liq bo'ladi.

Atmosfera quyi qatlami-troposferaning ana shunday bir-birlaridan farq qiluvchi katta ko'lamdagi to'plamlari havo massalari deyiladi.

O'rta Osiyo iqlimining shakllanishida arktika, mo'tadil va tropik havo massalari juda faol ishtirok etadi.

Arktika-havo massalari qishda Shimoliy Muz okeanidan G'arbiy Sibir va Ural orqali, shuningdek shimoli-sharq tomondan Sharqiy Sibir orqali O'rta Osiyo hududiga kirib keladi.

G'arbdan va shimoli-g'arbdan, Volga bo'yi va Sharqiy Yevropa orqali kontinental mo'tadil havo massalari keladi. Bu havo ham ancha salqin bo'ladi, lekin ko'pincha yog'ingarchilik keltiradi.

Yoz oylarida o'lkada ustida turib qoladigan kontinental tropik havo massasi o'lkaning tekisliklari ustida vujudga keladi, harorati juda baland, quruq va g'uborli bo'ladi.

Turli geografik xususiyatlarga ega bo'lgan havo massalari bir-birlari bilan tutashgan joylarida oraliq zona, yani havo fronti hosil bo'ladi. Havo frontida ikkala xil havo massasi o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Front zonasi qaysi havo massasining kuchli ekanligiga qarab iliq yoki sovuq frontlar deb ataladi.

#### 1-chizma. **Havo frontlari.**

Havo frontlari juda katta xududlarni qamrab oladi. Front zonasining turli qismlarida diametri bir necha yuz, hatto minglab kilometrga teng bo'lgan juda katta havo girdoblari uchraydi. Ularning bazilari markazida havo bosimi past bo'lib, atrofga tomon ortib boradi va havo atrofdan markazga tomon soat strelkasiga teskari yo'nalishda harakat qiladi. Bunday havo girdoblari siklonlar deyiladi.

Aksincha front, zonasida atmosfera bosimi markazdan atrofga tomon kamayib boradigan, shamollar soat strelkasi yo'nalishida esadigan havo girdoblari antitsiklonlar deb yuritiladi. 2-chizma.

Yilning salqin faslida Sharqiy Sibir va Markaziy Osiyo xududida atmosferada yuqori bosimli Osiyo (Sibir) antitsikloni vujudga keladi. Natijada O'rta Osiyoning butun xududiga Sharqiy Sibirning sovuq havosi deyiladi.

Ana shunday sovuq havo massasi Eron, Afg'oniston hududidagi iliq tropik havodan ajratib turadigan qutb fronti Turkistonning janubiy chekkasi ustida joylashadi. Havo frontining ikki tomonida havo massalari haroratidagi tafovut katta bo'lganligi sababli front atrofida siklonlar harakati kuchayadi. Siklonlar keltirgan iliq tropik havo tufayli harorat oldingisiga nisbatan  $10^{\circ}$ - $20^{\circ}$  ko'tarilib, bulut ko'payadi. Yog'inlar-yomg'ir, bazan qor, ana shu siklonlar o'tganda yog'adi.

O'rta Osiyo xududiga shimoli-g'arb yoki shimoldan Arktika va mo'tadil kengliklar sovuq havo massasi kirib kelganda harorat ancha ( $10^{\circ}$ - $20^{\circ}$ gacha) pasayib, qattiq sovuq bo'ladi.

Yilning iliq davrida, ayniqsa yoz oylarida O'rta Osiyoda havo massalarining almashinuvi mutlaqo boshqacha ko'rinishga ega.

O'rta Osiyo hududi ustida yoz oylarida past bosimli hudud, yani "termik depressiya" vujudga keladi. "Termik depressiya markazi" qizdirish o'choqlari deb ataladi. O'rta Osiyoda 3 joyda-Qizilqumda (Tomdi atrofida), Qoraqumda (Repetik) va janubda Surxandaryoda (Sherobod cho'llari) shunday "qizdirish o'choqlari» hosil bo'ladi. Termik depressiya bo'lib turadigan yoz faslining qariyb 15%ini tashkil etadi.

O'rta Osiyoning tog'li relefga ega bo'lgan xududlarida iqlim tekisliklarga nisbatan farq qiladigan bir qator xususiyatlarga ega bo'ladi. Chunonchi, balandlik ortishi bilan havoning

tiniqligi oshadi havo bosimi pasayadi, quyoshning nurli energiyasi oshadi, havo harorati esa pasaya boradi, namlik va yog'in-sochin ko'payadi. Tog'larda qish davri uzoq, yoz issikroq bo'ladi. Baland tog'larda qor ko'p yog'ib, uzoq vaqt saqlanadi.

Insonning yer yuzasi holatiga faol tasir etishi oqibatida iqlimda ham o'zgarishlar ro'y beradi. Suv bilan yaxshi taminlangan, o'simliklarga boy vohalarda (Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, Issiqko'l, Norin, Oloy, Vaxsh, Zarafshon, Quyi Amudaryo, Qashqadaryo, Surxandaryo vohalarda va boshqalar) ayniqsa katta o'zgarishlar ro'y beradi. Bu yerlarda yozda havoning harorati atrofdagi cho'llarga nisbatan 2 -3° past, haroratning sutkallik farqi kamroq, nisbiy namlik 10-20% oshiq bo'ladi, xullas o'ziga xos voha iqlimi tarkib topadi.

Dars bayoni tushuntirib ochib berilgach, darsning so'ngida bolalar bilimni tekshirish va darsni mustahkamlash uchun tarqatma materiallar bir necha etapda berilishi mumkin. Masalan:- qisqa va tez javob beriladigan savolllar;

II-test tarqatmalari.

III-iqlim kartalarini o'qish va shu kabilar berilishi mumkin.

1-etap

Qisqa savollarga-qisqa javoblar.

1.O'rta Osiyo iqlimiga tasir qiluvchi omillarni sanang.

-Geografik o'rni va quyosh radiatsiyasi; havo massalarining harakati, joyning relef tuzilishi.

2.Quyosh radiatsiyasi nima?

-Quyoshning yer yuziga tushadigan nur energiyasi va issiqligi. 3.quyosh radiatsiyasi qanday ifodalanadi?

-Muayyan vaqt mobaynida 1sm<sup>2</sup> yer yuzasiga kalloriya miqdorida tushgan nurli energiya.

4. Quyosh radiatsiyasining er yuzasida taqsimlanishi nimaga bog'liq?

-Geografik kenglikka.

5.Tarqoq radiatsiya qachon vujudga keladi?

-Quyosh nurlarining bir qismini havodagi suv bug'lari, changlar, shuningdek bulutlar yutib va tarqatib yuborganda.

6.To'g'ri radiatsiyaga tarif bering?

7. Yangi radiatsiyaga tarif bering?

8.Havo massalariga tarif bering?

9.O'rta Osiyo iqlimining shakllanishida faol ishtirok etadigan havo massalarini sanab bering?

10.Havo fronti qanday hosil bo'ladi?

- 11 .Ularning (havo frontlarining) iliq yoki sovuq bo'lishiga sabab nima?
- 12.Siklonlarga tarif bering?
- 13.Antitsiklonlarni tushuntirib bering?
- 14.Termin depressiya nima?
- 15.O'rta Osiyodagi "qizdirish o'choqlari"ni sanab bering

Bu usul o'qituvchiga o'quvchilarning bilim faoliyatini tekshirishda, nazorat qilishda qulayliklar yaratadi. Ular diqqati geografik ob'ekt va hodisalarning eng muhim belgilarini aniqlashga va mustaqil xulosalar chiqarishga qaratiladi. Savollar shunday qo'yilishi kerakki berilgan javob asosiy fikrni ifodalashi va shu fikrni davom ettirishi kerak.

2-etap.

Test tarqatmalari.

- 1.O'rta Osiyoda yozgi quyosh turishi qachon kuzatiladi.  
A. 22 dekabr. B.22 .iyun. V.22iyul. G.22 yanvar. D.22 avgust.
- 2.Qoraqum cho'li janubida yalpi radiatsiya nechaga teng.  
A.150 kkal B.250 kkal V.100 kkal G.135 kkal D.125 kkal
- 3.O'rta Osiyo xududiga Arktika havo massalari kirib kelganda havo qanday bo'ladi?  
A. Nam, quruq, chang to'zonli  
B. Harorati baland, g'uborli  
V. Sovuq, quruq, tiniq  
G. Seryog'in, nam  
D. Sovuq, chang to'zoni, nam
4. Termik depressiya bo'lib turadigan kunlar yoz faslining necha % ini tashkil etadi.  
A. 15% B.20% V 33% G 10% D 25%
5. Arktika havo massalari kirib kelganda shimoliy rayonlarda harorat necha gradusgacha pasayishi mumkin?  
A.-25<sup>0</sup>, -30° B. -30<sup>0</sup>, -35° V. -35°, -40° G. -35°, -45° D. -25°, -35°
6. Yoz oylarida o'lka xududiga asosan qanday radiatsiya tushadi?  
A. Yalpi radiatsiya G. Radiatsiya tushmaydi.  
B.To'g'ri radiatsiya D. To'g'ri javob yo'q.  
V. Tarqoq radiatsiya
7. Tropik havo massalari kirib kelganda havo qanday bo'ladi?  
A. Nam, quruq, chang - to'zonli.  
B. Harorati baland, quruq g'uborli

V.Sovuq, quruq, tiniq

G.Seryog'in va sernam

D. Sovuq, sernam, g'uborli

8.Orol dengizi qurishi oqibatida uning atrofida iqlim qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?

A. Yozi issiqroq, qishi sovuqroq

B. Namgarchilik va seryog'in

V. Sutkalik farq kam

G. Nisbiy namlik atrofga nisbatan oshiq.

D. Qishi uzoq, yozi qisqa

Test usulining qam bir qancha qulayliklari bor. Masalan, qisqa vaqt ichida bir yo'la butun sinf o'quvchilarini baholash mumkin bo'ladi, o'quvchilarning qaysi mavzularni to'liq, qaysi mavzularni zaif o'zlashtirganini aniqlash imkonini beradi.

3- etap.

Bu etapda o'quvchilar "O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografiyasi" atlasidan tayyorlangan tarqatma materiallarni oladilar. Bunda sinf o'quvchilarini 5 guruhga bo'lamiz. Chunki " O'rta Osiyo iqlimi" ni atlasdan asosan 5- guruhga bo'lib o'rganish mumkin.

Bunda 1-guruhga:

Havo harorati. Yanvar oyida quyoshning yalpi radiatsiyasi o'lka xududiga qanday taqsimlanadi.

Yanvarning o'rtacha oylik harorati, havo haroratining yanvardagi mutloq minimumi qaysi hududlarda qanday taqsimlangan kabi savollarga kartani o'qib javob beradilar.

II-guruh.

Iyul oyining havo harorati, iyul oyida quyoshning yalpi radiatsiyasi iyul oyining o'rtacha oylik harorati, iyul oyida havo haroratining mutloq maksimumi kabi malumotlarni gapirib beradilar.

III-guruh

O'lka xududida yillik yog'in miqdorining o'lka xududida taqsimlanishi, izogetalar haqida gapiradilar.

IV-guruh.

Yanvar oyidagi havo bosimi, siklonlar va antitsiklonlarning yo'llari, shamolning ko'p kuzatiladigan yo'nalishlarini tushuntirib beradilar.

V-guruh.

Iyul oyida havo bosimi qanday bo'ladi. Shamollarning yo'nalishi qaysi tomondan bo'ladi kabi savollarga javob beradilar.

**Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanlarini  
O'qitishda didaktik tarqatma materiallardan  
foydalanishning ahamiyati.**

Iqtisodiy geografiyada ob'ektning qayerda joylanishi va qanday hududni tashkil etganligi, ya'ni sifat ko'rsatkichlari ustivor ahamiyatga ega. Iqtisodiy geografiyaning o'zigi xos nazariy va amaliy masalalarini tadqiq qilish hozirigi kunda muhim muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammolarni echish usullari, iqtisodiy-ijtimoiy tushunchalarni o'quvchilar ongida shakllantirishda, iqtisodiy geografiyaga oid tarqatma materiallarning ahamiyati nihoyatda katta. Chunki iqtisodiy kartalarni o'qish, ularni bir-biri bilan taqqoslab ta'rif berish, diagramma va jadvallarni to'g'ri taxlil qilishda, iqtisodiy geografik terminlarni bilib olishlarida tarqatma materiallar o'quvchilarning eng yaqin yordamchisi hisoblanadi. Shu bilan birga o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun ham imkon beradi. Iqtisodiy geografiya darslaridagi tarqatma materiallarning o'rni va ahamiyati quyidagi dars taxlillarida alohida-alohida ochib berilgan.

**Fan:** O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.

**Sinif;** 8.

**Darsning mavzusi:** O'zbekiston aholisi

**Darsning maqsadi:**

A) O'quvchilarni o'z millatiga, xalqiga sadoqatli, Vatanga mehrmuhabbatli qilib tarbiyalash.

B) O'quvchilarga aholi, inson omili, bandlik muammosi, aholi manzilgohlari haqida bilim berish.

V) O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, erkin so'zlashga o'rgatish.

G) Iqtisodiy geografiya, demografiya kabi sohalarga o'quvchilarni qiziqtirish.

D) Milliy mafkuraga, mustaqillikka o'quvchilarni o'rgatish.

**Das` tipi:** Mustahkamlash darsi.

**Darsning uslubi:** Ko'rgazmali- amaliy.

**Darsning usuli:** Qor uyumi.

**Dars didaktikasi:** O'zbekistonning iqtisodiy kartasi, 8- sinf atlas, jadval, tarqatma materiallar.

**Darsning borishi:**

A) Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish.

B) O'quvchilarni darsga tayyorlash.

V) Yangi mavzu:

**Reja:**

- 1.Aholi soni va zichligi.
- 2.Aholi tarkibi.
- 3.Inson omili va undan foydalanish.
- 4.Aholi manzilgohlari.

Mustahkamlash darslarida egallagan bilimlarini amalda sinash, ko'proq o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, har xil mashhlarni bajarishga e'tibor beriladi.

Bu darsning asosiy maqsadi geografiyaga xos bo'lgan hamda nazariy bilimlar bilan mustahkam aloqada bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Mustahkamlash darsida asosiy e'tibor o'tilayotgan mavzuni qanchalar o'quvchilar chuqur egallaganligiga qaratiladi.

Bu darsni savol-javob, test, har xil o'yinlar tarzida o'tkazish mumkin. Men darsni o'tish jarayonida birinchi navbatda «O'zbekiston aholisi» mavzusini takrorlab olishni lozim deb topdim. Chunki darsni takrorlab olish o'quvchilarni mavzuga tayyorgarliklarini yana bir bor ko'rsatib beradi. O'quvchilarga savollar yozilgan kartochkalar tarqataman.

**Savollar:**

1. Aholi deganda nimani tushunasiz?

-Aholi-maxsulotni ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchidir.

2. Mutloq tabiiy ko'payishga ta'rif bering.

-O'lganlar soniga nisbatan, to'qilganlar sonining ortiqligi.

3. Mexanik o'zgarish va migratsiya tushunchalari nimani anglatadi?

-Aholining soni odamlarning yashash joyidan boshqa joylarga ko'chib borishi natijasida ham o'zgaradi. Aholi sonining bunday o'zgarishi mexanik o'zgarish deyiladi.

Aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib borishi esa migratsiya deyiladi.

4. O'zbekiston aholisining ko'payishi haqidagi fikrlaringiz?

O'zbekiston aholisi asosan tabiiy ko'payish hisobiga ko'paymoqda. Rossiya Fanlar Akademiyasi qoshidagi demografiya va ekologiya markazi bilan Frantsiya demografik tadqiqotlar instituti tarqatgan ma'lumotlarga ko'ra 2025 yilga borib, O'zbekiston aholisining soni 42 mln kishidan ortadi.

5. Aholining tarkibi qanday o'rganiladi?

-Aholining tarkibi yoshi, jinsi, ijtimoiy-sinfii mansubligi, millati, ma'lumoti bo'yicha o'rganiladi.

6. Aholining ijtimoiy tarkibini tushintiring.

-Aholining ijtimoiy tarkibi deganda-O'zbekiston xududida aholi umumiy miqdorida ishchi va xizmatchilar, dehqonlar va boshqa ijtimoiy guruhlar qanchani tashkil etishi tushiniladi.

7. Mehnatga yaroqli kishilar kimlar?

8. O'zbekistonda ayollar va erkaklar necha yoshlarda mehnatga yaroqli hisoblanadi?

9. Mehnatga eng yaroqli kishilar deb necha yoshlar orasi olingan?

10. Respublikamizda nechta oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari bor?

11. O'zbekistonda aholi manzilgohlarining qanday ko'rinishlari tarkib topadi?

12. Aholi manzilgohlari qaysi omillar ta'sirida tarkib topadi?

13. O'zbekistonda nechta shahar, shaharcha va qishloq hamda ovular mavjud?

14. Aglomeratsiyaga ta'rif bering.

15. Yangi shahar va shaharchalarni sanab bering.

O'quvchilarni faqat tezkor savollar bilan zeriktirib quymaslik uchun, ularga «Qor uyumi» o'yini usulida mavzu yuzasidan muammoli savollar beriladi.

O'quvchilar bu savolarga shunday javob bersinlarki, javoblar bir-birini to'ldirsin. Javoblarning so'ngida o'qituvchi xulosa qiladi. Quyida muammoli savolarning dars jarayonida berilishi va javoblar qanday bo'lishi mumkinligi to'g'risida misllar berib o'taman.

Masalan, O'zbekiston aholisining ko'payishiga ta'sir ko'tsatuvchi omillarni sanab bering va ular ijobiymi yoki salbiymi.

- To'qilishning yuqorililigi: Ijobiy.
- O'limning pasayganligi: Ijobiy.
- Nikohning ko'p va ajralishning kamligi: Ijobiy.
- Respublikalararo migratsiya: Salbiy.
- Oila mustahkamligi: Ijobiy.
- Emigratsiya: Salbiy.
- Urushlarning bo'lib turishi: Salbiy.
- Xalqning turmush darajasi. Ijobiy.

Darhaqiqat, aholining tabiiy ko'payishiga juda ko'p salbiy va ijobiy omillar ta'sir ko'rsatar ekan. Bu omillarning barchasini o'ylab ko'rib, ularning echimlarini topish uchun bugungi kunda ko'plab davlatlarda demografik siyosat yo'lga quyilgan. Bunday siyosat respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishni, aholi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashni, sog'lom hayot tarzini rahbatlantirishni kuzda tutadi.

Yoki bo'lmasa, O'zbekistonda aholining bandlik muammosini ham xuddi shunday taxlil qilishimiz mumkin. Aholi manzilgohlarini o'rganishda juda ko'p qiziqarli o'yinlar o'tkazish mumkin. Bular o'quvchilarga hozirjavoblikni o'rgatadi. Shunday o'yinlardan ayrimlarini dars jarayonida qo'llash mumkin.

Masalan, Shaharlar kvadrati. Qog'oz olib, shahar nomini shunday ketma-ket qilib yozingki, har bir ustundagi shaharlar soni undagi harf soni bilan bir xil bo'lsin: vazifani bajarish uchun 3-5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Masalan,

1. Qarshi	Boysun	Toshkent
2. Gazli	Chirchiq	Andijon
3. Qo'qon	Navoiy	Farg'ona
4. Kitob	Buxoro	Olmaliq
5. Nukus	Jizzax	Yangiyo'l

Yozilganlarni puxta tekshirilgandan so'ng, o'yin g'olibi aniqlanadi. Kim vazifani tez, shaharlarni to'g'ri va ko'p yozgan bo'lsa, u g'olib sanaladi.

Yoki bo'lmasa, sinfni 3 ta guruhga bo'lib, ularga chaynovordlar berish mumkin.

I. Guruhga: Respublikamizdagi ko'pgina shaharlar obod so'zi bilan tugaydi. Agar kataklarni to'g'ri to'ldirsangiz, ularning nomi kelib chiqadi.

1-Surxandaryo viloyatidagi shahar.

2, 6- Toshkent viloyatidagi shaharlar.

4, 5, 7- Andijon viloyatidagi shaharlar.

3- Samarqand viloyatidagi shaharlar.

8 - Namangan viloyatidagi shaharlar.

			<b>1</b>			<b>O</b>	
			<b>2</b>				<b>B</b>
			<b>3</b>				
			<b>4</b>				<b>D</b>
		<b>5</b>					
		<b>6</b>					
	<b>7</b>						
<b>8</b>							

II. Guruhga: Kent so'zi bilan tugovchi respublikamizdagi shaharlarni toping.

1,2, 5- Toshkent viloyatidagi shaharlar.

4- Buxoro viloyatidagi tarixiy shaharlar.

3 - Qashqadaryo viloyatidagi shahar.

			<b>1</b>			<b>K</b>
		<b>2</b>				<b>E</b>
		<b>3</b>				<b>N</b>
		<b>4</b>				<b>T</b>
<b>5</b>						


III. Guruhga: Kent so'zi bilan tugovchi shaharlarni aniqlang.

1- Qirg'iziston chegarasiga yaqin shaharlar.

2,3- Respublikamiz janubidagi shaharlar.

4- Farg'ona vodiysidagi shaharlar.

5- Samarqand viloyatidagi shahar.



Dars jarayonida o'quvchilarning bilim darajasi, javob va testlar kabi materiallar bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni ham shakllantirib borish kerak. Agar bugungi «O'zbekistonning aholisi» mavzusini o'tishimda o'quvchilarga amaliy topshiriq ham bersam, bu usul darsimni yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi deb o'ylayman.

Amaliy topshiriq quyidagicha bo'lishi mumkin: Har bir o'quvchiga tarqatma qilib, respublikamizda yashovchi millatlarning foiz hisobi beriladi.

Masalan:

- 1- O'quvchi 71,4 % - o'zbeklar.
- 2- O'quvchiga 8,3 % - ruslar.
- 3- O'quvchiga 4,7 % - tojiklar.
- 4- O'quvchiga 4,1 % - qozoqlar.
- 5- O'quvchiga 2,1 % - qoraqalpoqlar.

6- O'quvchiga 1,0 % - va hokazolar. Shu tarzda tarqatib chiqilgan ko'rsatkichlarni olgan o'quvchilarga berilgan foizlardan foydalanib, har bir millatning sonini hisoblash topshiriladi.

Agar 71,4 % o'zbeklarning sonini aniqlasak,

23 mln. - 100%

X - 71,4%

$$X = \frac{23 \cdot 71,4}{100} = \frac{1642,2}{100} = 16,4$$

Demak, o'zbeklar 16.4 mln. kishi ekan.

Qolgan millatlarning soni ham shu tarzda aniqlanadi. Chiqqan ko'rsatkichlarni diogramma usulida tasvirlash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlaydi.(3- Chizma).

Uyga vazifa qilib, test tarqatmalarini berish berish mumkin.

Test savollari:

1. Hozirgi kunda O'zbekiston aholisi soni qancha?

- A) 22 mlndan ortiq
- B) 23 mlndan ortiq
- V) 24 mlndan ortiq
- G) 25 mlndan ortiq
- D) 26 mlndan ortiq.

2. Koreyslar Respublikaning qayerlarida ko'p yashaydi?

- A) Chirchiq vodiysi va Quyi Amudaryoda
- B) Zarafshon vodiysi va Toshkentda
- V) Qashkadaryo va Chirchiqda
- G) Buxoro va Navoiyda
- D) Farg'ona vodiysi va Samarqandda.

3. Mamlakatimizda aholining o'rtacha zichligi qancha?

- A) 45
- B) 54
- V) 60
- G) 64
- D) 40

4. Andijon viloyatida aholining o'rtacha zichligi qancha?

- A) 500
- B) 450
- V) 514
- G) 394
- D) 213

5. Hozirgi vaqtda aholi tarkibida erkaklar va ayollar sonini aniqlang.

- A) Erkaklar-49.6, ayollar- 50.4
- B) Erkaklar- 52.9, ayollar- 47.1
- V) Erkaklar- 52.0, ayollar- 48.0
- G) Erkaklar- 50.5, ayollar- 49.5
- D) Erkaklar- 53.0, ayollar- 47.0

6. Aholining ijtimoiy tarkibida dehqonlarning salmog'I necha foiz?

- A) 70.5%    B) 73.4%    V) 74.6 %    G) 78.9 %    D) 80%.

7. Respublikada nechta oliy o'quv yurti bor?

A) 50 B) 55 V) 68 G) 62 D) 52

8. Respublikada shaharchalar soni nechta?

A) 121 B) 100 V) 14000 G) 150 D) 113

9. O'zbekiston shaharlarida aholi soni qancha?

A) 5 mingdan 10 minggacha.

B) 3 mingdan 20 minggacha.

V) 10 mingdan 20 minggacha.

G) Mingdan 10 minggacha.

D) 5 mingdan 15 minggacha.

10. O'zbekiston «olovxonasi» deb qaysi shaharni aytadilar?

A) Angen

B) Bo'ka

V) Vobkent

G) Gazli

D) Denov

**Fan:** Iqtisodiy -ijtimoiy geografiya

**Sinf:** 9

**Darsning mavzusi:** Germaniya federativ respublikasi.

**Darsning maksadi:**

A) Tarbiyaviy-mavzuni yoritish bilan birga, unga mos ravishda o'quvchilarga iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy tarbiya berish.

B) Ta'limiy-Germaniya Federativ Respublikasi haqida o'quvchilarda bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

V) Rivojlantiruvchi - o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

G) Kasbga oid yo'nalish-geografiyaning hozirgi kundagi murakkabligiga o'quvchilarni qiziqtirib borish.

D) Milliy mafkuramizni bolalar ongiga singdirish.

**Dars tipi:** Sinash

**Dars uslubi:** Og'zaki yozma, baxs munozara

**Dars usuli:** «Aqliy xujum»

**Dars didaktikasi:** Karta, yozuvsiz karta, jadval, tarqatma materiallar, test.

**Darsning borishi:**

A) Darsning tashkiliy qismi: salomlashish, o'quvchilarni darsga tayyorlash.

B) Mavzuga oid yangiliklar, xabarlar.

V) Yangi mavzu bayoni.

**Reja:**

1. Geografik o'рни, mamlakat haqidagi umumiy ma'lumotlar
2. Tabiiy boyliklari
3. Aholisi
4. Xo'jaligi.

Darsning rejasini o'quvchilarga tanishtirgach, o'quvchilarni darsga mustaqil tayyorlanganliklarini, ularning erkin fikrlarini tinglash uchun darsning bayonini ochib berishda, o'quvchilarga savollar yozilgan tarqatma kartochkalar tarqataman.

Savollar quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

1. Germaniyaning joylashgan o'rniga ta'rif bering?

O'quvchining javobi:

Germaniyaning Markaziy Evropada joylashgan. Mamlakatning iqtisodiy jihatdan yuksak rivojlangan davlatlarga yaqin, transevropa bosh yo'lining kenglik va uzunlikdagi kesishgan yerida joylashganligi katta foyda keltirmoqda.

2. Germaniya qaysi davlatlar bilan chegaradosh?

Javob: Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Frantsiya, Shveysariya, Avstriya, Chexiya, Polsha, Daniya bilan chegaradosh.

3. Ikki nemis davlatining birlashishi to'g'risida.

Javob: 1989 yilning oktyabrida ikki davlat GFR va GDR birlashganidan keyin Germaniya hozirgi chegaralariga ega bo'ldi. Natijada Germaniya xududi 43 % ga, aholisi esa 27 % ga ko'paydi.

4. Davlatning tuzilish shakli.

Javob: Parlament Respublikasi.

5. Xududiy siyosiy tuzilishga ko'ra nechaga bo'linadi?

Javob: Xududiy siyosiy o'zgarishga ko'ra 16 yer dan tashkil topgan federatsiya:

6. Davlatning xududiy siyosiy tuzilishiga ko'ra bo'lingan 16 yerini sanab bering.

Javob: Baden-Vyurtemberg, Bavariya, Berlin, Brandenburg, Bremen, Gamburg, Gessin, Meklenburg (oldingi Pomeraniya), quyi Saksoniya, Reyland-Pfals, Shimoliy Reyn-Vestfaliya, Saar, Saksoniya, Saksoniya-Angalt, Tyurengiya va Shlezvig-Polshteyn.

Savol-javob shu tariqa davom etadi. Quyida qolgan tarqatma savollarni keltirib o'taman.


7. Germaniyaning asosiy toshko'mir konlarini ayting.
8. Davlatda yana qanday foydali qazilma konlari bor.
9. Mamlakatning yirik daryolarini bilasizmi?
10. Germaniyaning axolisi soni qancha?
11. Davlat tili, dini qaysi?
12. Germaniyaning transmilliy korporatsiyalari haqida gapirib bering.
13. Neftni qayta ishlash zavodlari qaysi shaharlarda?
14. Mamlakat sanoatida qora va rangli metallurgiya o'rnini qanday?
15. Mashinasozlikning eng yirik markazlarini ayting.
16. Dengiz kemasozligining va daryo kemasozligining yirik markazlari qayerlarda?
17. Germaniyaning kimyo sanoati haqida nimalarni bilasiz?
18. Mamlakatda qaysi transport turlari yaxshi rivojlangan?
19. Germaniyaning tashqi iqtisodiy aloqalari.
20. Germaniyaning O'zbekiston bilan diplomatik aloqalari.

Dars bayoni baxs-munozara usulida ochib berilgach, darsni mustahkamlash uchun o'quvchilarni 3 guruhga bo'lib, yozuvsiz karta yordamida ishlatishni lozim deb topdim.

Bunda I- guruhga shunday savol beriladi.

Yozuvsiz kartaga, (ya'ni Germaniyaning iqtisodiy xaritasiga) yirik sanoat korxonalarini tez va aniq joylashtirish.

Guruh o'quvchilari quyidagi kabi shartki belgilarni joylashtiradilar.



II-Guruhga esa o'sha sanoat korxonalarini zich joylashgan shaharlar nomini berilgan belgilarga mos tarzda joylashtirish topshirih beriladi.

O'quvchilar-Berlin, Leypsig, Duysburg, Myunxen, Shtutgart, Iyunberg, Gamburg, Drezden kabi shaharlarni yozib chiqadilar.

III- Guruh- Yozuvsiz kartada mamlakatning qishloq xo'jaligini aks ettiradilar.

Sinfda olib boriladigan har qanday ish uni eng sayyoz fikrlaydigan o'quvchi ham tushinib etgandagina samarali bo'ladi. Buning uchun dars yangi pedagogik texnologiyalar asosida etkazib berilishi kerak.

Uyordagi usul o'quvchilarning geografik kartalarni o'qiy olishiga, kartalardan mustaqil bilim olish va mo'ljal olish sanoati ko'nikmasini hosil qilishga yordam beradi.

Uyga vazifa qilib, mavzuga doir test tarqatmalari tarqataman va G F R chaynovordini beraman. Test tarqatmalari o'quvchilarni uyda izlanishga, mavzuga yana bir bor e'tiborlarini qaratishga, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganishga yordam beradi.

Test tarqatmalaridan namunalar:

1. Germaniyaning davlat tuzimi qanday?
  - A) Unitar
  - B) Federativ
  - V) Xalq
  - G) Islom
  - D) Federativ islom.
2. Germaniyaning pul birligini toping.
  - A) Dollar
  - B) Marka.
  - V) Lira.
  - G) Krona.
  - D) Funt
3. Germaniyaning industrial yuragi deb qaysi sanoat rayoni deb tan olingan?
  - A) Keln
  - B) Rur
  - V) Duysberg
  - G) Saar
  - D) Axen
4. Rur shahrining poytaxti qaysi shahar?
  - A) Dortmund
  - B) Essen
  - V) Myunxen
  - G) Krefeld
  - D) Duysburg
5. Germaniyada bolalar salmog'i necha foiz?
  - A) 5
  - B) 10
  - V) 15
  - G) 20
  - D) 25



D) Bolalarni millim istiqlol ruhida o'stirish.

**Dars tipi:** Mustahkamlovchi.

**Dars uslubi:** Ko'rgazmali-amaliy.

**Dars usuli:** Munozara.

**Dars didaktikasi:** Siyosiy karta, Osiyoning siyosiy kartasi, atlas, tarqatma materiallar.

**Darsning borishi:**

A) tashkiliy qism, psixologik iqlim.

B) Qiziqarli malumotlar va yangiliklar.

V) Yangi mavzu.

### **Reja:**

1. Osiyo davlatlarning tuzimi va bayrog'i.
2. Osiyo mamlakatlari xo'jaligi.
3. O'rta Osiyo mamlakatlari.
4. O'zbekistonga xududi va madaniyati yaqin mamlakatlar.

Darsning tipi mustahkamlovchi dars bo'lib, bunday darslarda egallagan bilimlarni amalda sinash ko'proq o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash xar xil mashklarni bajarishga etibor beriladi. Shuning uchun bu darsni ochib berish uchun ko'rgazmali-amaliy uslubdan foydalanishni lozim deb topdim.

Bu darslarning asosiy maqsadi geografiyaga xos bo'lgan hamda nazariy bilimlar bilan mustahkam aloqada bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. O'quvchilar faoliyati amaliy ishlarni bajarishga ko'proq jalb qilinadi.

Osiyo mamlakatlari mavzusining so'ngida darsni mustahkamlovchi darsmunozara, baxs va musobaqa o'tkaziladi.

Bunda birinchi navbatda sinf o'quvchilarini guruhlariga bo'lib chiqaman va ularga maxsus tayyorlangan kartochkalarni tarqataman. Kartochkalarda davlatlarning davlat bayrog'i bo'lib, o'quvchilar o'sha bayrog'ni qaysi davlatga tegishli ekanligini topib, uni magnitli doskaga ilingan siyosiy kartaga joylashtiradilar va o'sha davlat haqidagi muhim xususiyatlarni aytadilar.

Masalan:

#### **1-usul**



O'zbekiston davlati 1991 yil 1- sentyabrda mustaqillikka erishdi. Davlat tuzumi-Respublika. Davlat boshlig'i-Prezident. Pul birligi-so'm va hokazolar.



#### Yoki bo'lmasa

Qozog'iston respublikasi 1991 yil 16 dekabrda mustaqilligi e'lon qilingan. Davlat tuzumi respublika, davlat boshlig'i-Prezident, pul birligi-tenge va h.k.



Tojikiston respublikasi 1991 yil 9 sentyabrda mustaqillikka erishdi, davlat tuzumi-respublika, davlat boshlig'i-Prezident, davlat tili -tojik tili va h.k.



Mamuriy jihatlar 23 provitsiyadan iborat. Davlat tizimi- Islom respublikasi, davlat tili-fors tili, pul birligi-lira va h.k.

O'quvchilar o'zaro "qaysi guruh ko'p topadi" savoli ustida musobaqalashadilar. Bu usul o'quvchilarni chaqqonlikka, topqirlikka va erkin fikrlay olishga o'rgatadi.

II-usulda esa o'quvchilarning zukkologini yana bir bor tekshirish maqsadida yana tarqatma materiallar tarqatiladi. Bu tarqatmalar yuqoridagidan keskin farq qiladi, bunda o'quvchilar Osiyo mamlakatlarining xo'jaligini qanchalar chuqur va sayoz o'rgangan ekanligini isbotlaydilar.

Tarqatmalar esa qo'yidagi ko'rinishda bo'ladi:

1. Bu mamlakat hozirgi vaqtda temir rudasi va ko'mir qazib chiqarish, sement, to'qimachilik maqsulotlari, velosipedlar, televizorlar kabi ko'plab maishiy xizmat texnologiyalari ishlab chiqarish jihatidan jahonda birinchi o'rinni egallaydi. Bu ta'rif qaysi mamlakatga xos?

2. Bu davlat rivojlangan mamlakatlarning eng yirigidir. Davlat xo'jaligining muhim xususiyatlari ishlab chiqarish tarmoqlari bo'lib, nomuvofiq joylashganligidir.

Bu ta'rif kaysi mamlakatga tegishlidir?

3. Xujaligi agrar industrial xarakterga ega. Etakchi xujalik tarmogi kishlok xujaligidir. Dexkonchiligining eng yirik tarmogi donchilikdir.

Bu ta'rif kaysi davlatnng xujaligini belgilaydi?

4. Xujalik agrar industrial xarakterga ega. Uning asosini sugorma dexkonchilikka asoslangan kishlok xujaligi tashkil kiladi. Sugoriladigan erlarning umumiy maydoni 1.3 mln ga tengdir.

Bu ta'rif kaysi mmlakatning xujaligiga tegishli ekanligini bilsizmi?

Har bir davlatning xujaligiga yozilgan ta'riflar tarkatilgach, ukuvchilar olgan bilimlariga tayanib javob beradilar.


O'qituvchi guruxlarni baxolab, ayrim faol ukuvchilarni ragbatlantirib, ukuvchilarga uyga vazifa berishi kerak. Uyga vazifa xam tarkatma materiallar bulishi kerak. Uyga vazifa xam tarkatm materiallar bulishi mumkin.


Masalan,

Usul: Har bir kartochka markaziga davlat nomi yozilib, davlatning yukorisiga va pastki kismiga bir necha kataklar yonma- yon joylashtiriladi.

O'quvchilar yukoridagi bush kataklarga davlatning eksportidagi eng muxim ashyolarni, pastdagi bush kataklarga davlatning importidagi eng muxim ashyolarni topib yozadilar.

Kartochkalar kuyidagich buladi.





Bu usul o'quvchilarni mustakil dare tayyorlashga, kushimcha adabiyotlarni ukishga, izlanishga undaydi. Bu esa o'quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirishda muxim omil buladi. Chunki bugungi kunda geografik madaniyatni shakllantirish uchun zamonaviy, qiziqarli, ko'proq o'quvchi bilan fikr almashib dars o'tish dolzarb vazifa qilib belgilangan.

### **Amaliy geografiyani o'qitish jarayonida didaktik tarqatma materiallardan foydalanish yullari.**

Amaliy geografiya fani ham bugungi kunda ma'mul bir muammolarga ega. Bu muammolarning dolzarbligidan biri fanning maktab dasturiga yangi kirib kelganligi, o'quvchilarning kam bilim va malakaga, ko'nikmaga ega ekanligidir. Mavzularni o'tish jarayonida bu narsa o'qituvchilarga biroz qiyinchiliklar tug'diradi. Yuqoridagi muammolarni echish uchun esa yana o'qituvchining mahorati asosiy urin egallaydi. Boshqa kurslarda, ya'ni

quyi kurslardagi kabi bu kurslarda xam daryo mazmunli va qiziqarli bo'lishi uchun o'quvchilar e'tiboriga turli tarkatma materiallar havola etish kerak bo'ladi. O'quvchilarga bu fan yuqori kurslarda o'tilgan uchun o'quvchilarni ko'proq suhbatga tortish, ularning muammoli masalalarni echishdagi fikrlarini tinglash darsning samaradorligini oshiradi. Amaliy geografiya darslari uchun berilgan daryo ishlanmalari yuqoridagi masalalarga biroz oydinlik kiritadi.

**Fan:** Amaliy geografiya.

**Sinf:** 10.

**Darsning mavzusi:** Ekologik muammolar va ular yechimining amaliy geografik asoslari.

**Darsning maqsadi:**

A) Tarbiyaviy- Mavzu bayonini ochish bilan bir qatorda o'quvchilarga ekologik tarbiya berish.

B) Ta'limiy- Ekologik muammolar, muammolarning echimi, muammolar echimida amaliy geografiyaning o'rni xaqida o'quvchilarda bilim va kunikmalar xosil qilish.

V) Rivojlantiruvchi- Ukuvchilarni erkin fikrlashga urgatish, ularning suz boyligini oshirish.

G) Kasbga oid yunalish- O'quvchilarni geografiya, ekologiya kabi sohalarga qiziqtirish.

D) Milliy istiqlol g'oyasini bolalar ongiga singdirish.

**Daryo tipi:** Yangi tushuncha va bilim hosil qilish.

**Daryo uslubi:** Savol- Javob.

**Daryo usuli:** Seminar, bahs munozara.

**Daryo didaktikasi:** Siyosiy va tabiiy karta, savolli kartochkalar.

**Darsning borishi:**

A) Tashkiliy qism: Salomlashish, davomatni kuzatish, o'quvchilarni darsga tayyorlash.

B) Kundalik xabarlar va yangiliklar.

V) Yangi mavzu:

## REJA:

1. Atmosfera xavosida is gazining to'planishi bilan bog'liq bo'lgan hodisalar va ularning oqibatlari.

2. «Ozon tuynugi» nima?

3. Dunyo miqyosidagi ekologiya- geografik muammolarning echimi.

4. Hududiy geoekologik muammolar va ularning echimi.

O'quvchilar mavzuning rejasi bilan tanishlar. Ular «seminar» daryoni bahs- munozarali, qiziqarli bo'lishi uchun mustaqil tayyorgarlik ko'rgan bo'ladilar. Ularga engillik uchun «tayanch tushunchalar» tarqatma qilib berib yuborilgan.

**Tayanch tushunchalar quyidagilar.** «Dunyo issiqxonasi», ozon tuynugi, freon gazlari, «Bedind»lar, Evropaning «kir urasi», o'rmon ekotizimlari, «soy Amazoniya», kislotali yomg'irlar va hokazolar.

Darsni bayonini ochib berish o'quvchilarga mavzuning ayrim qismlaridan tuliqsiz ma'lumotlar beriladi. O'quvchilar bu ma'lumotlarni o'qib kelgan tayanch tushunchalari yordamida to'ldiradilar.

Masalan,

1. Atmosferaning quyi qatlami-troposferaning qalinligi 10-12 kmdan iborat bulib, unda...

Fikrni davom ettiring.

Davomi: unda qavoning 80 % mavjud. Mazkur qatlamda barcha iqlim xodisalari, suv va boshqa kimyoviy elementlarning aylanma harakati sodir bo'ladi. Atmosfera havosining yer ustidagi o'rtacha harorati quyosh radiatsiyasining intensivligi bilan, ya'ni quyoshdan shu joygacha bo'lgan masofa, albedo (yer sathidan koinotga qaytgan radiatsiya miqdori ) bilan aniqlanadi.

2. Havo xaroratining o'zgarishi asosan....

...asosan shimoliy va janubiy qutblarga yaqin bo'lgan Arktika va Antarktika, shuningdek mo'tadil mintaqaning shimoliy kismiga ko'proq tasir ko'rsatishi tahmin qilinmoqda. Ekvatorial va tropik mintaqalarda bu o'zgarishlar unchalik sezilmaydi.

3. Xlor, ftor va uglerod gazlari

... freon gazlarini tashkil qilib, «issiqxona samarasi»ni vujudga keltirishda faol katnashmokka. Bu gazlar atmosferada 50-yillardan boshlab to'planib, yiliga 5- 10 % ko'payib bormokka.

4. Ozon qatlamining buzilishi ilk bor...

... 1985 yilda Antaktida osmonida yuz bergan, bu xol «ozon tuynugi» nomi bilan atala boshlandi. Amerikalik mutaxasislarning ta'kidlashicha, «ozon tuynugi» nafaqat Janubiy Amerika va Antarktida, balki axoli zich yashaydigan shimoliy Amerika, Osiyo va Evropa ustida ham paydo bo'lishi mumkin.

5. Olitingugurt gazi kislotali yomg'ir hosil bo'lishining asosiy manbai bo'lib,...

... bunday yomg'irlar Evropada va shimoliy Amerikda ayniqsa tez-tez yog'ib turadi. Kislotali yomg'irlar xosildorlikni kamaytiradi, o'rmonlarni quritadi, chuchuk suvlardagi hayotni uldiradi, binolarni buzadi, kishilar sog'lig'iga yomon ta'sir qiladi.

O'kuvchilar yana....

6. 1977 yilda Kenilning Nayrobi shahrida...

7. Lenin keyingi vaktlarda Dunyo okeani ulkan «kir uraga» aylanib bormokda, ...

8. O'rmonlarni to'xtovsiz qirqilayotganining bir necha muhim sabablari bor, ular...

9. Butun dunyo sog'liqni saqlash (VOZ) tashkilotining ma'lumotiga muvofiq...

10. Sug'oriladigan yerlarda chullashishga qarshi kurash. ...

11. Dunyoda keng tarkalgan xududiy geoeologik muammolar...

12. Orol satxi 1961 yildan boshlab...

13. Orol buyida dengiz sathining pasayishi....

14. Orol muammosi ikki kism dan iborat...

Daryo bayoni ochib berilgach, o'kuvchilarga darsni mustahqamlash uchun, to'ldirish uchun, qiziqarli ma'lumotlar yozilgan tarqatmalarni o'quvchilar hukmiga havola etaman. Ular bu ma'lumotlarni o'zaro muhokama qilib olgach, o'qituvchi darsga xulosa qiladi.

### **Qiziqarli ma'lumotlar:**

1. Amerika olimlari 80- yillarning boshlarida Tinch okeanining faqat shimoliy qismida millionlab plastik xaltachalar, 35 mln plastik va 70 mln shisha butilkalar, plastmassadan yasalgan turli-tuman buyumlar, 5 mln eski poyafzal suzib yurganini aniqlashgan. Bunday buyumlarning dengiz hayvonlari qornidan topilishi oddiy hodisa bo'lib qoldi.

2. Norvegiyalik mashhur olim va sayyoh Tur Xeyerdal 1947 yilda «Kon- tiki» solida Tinch okeani orqali suzganida o'z yo'lida hech qanday ifloslovchi moddani ko'rmagan. 1969 yilda esa u «Ra» nomli elkanli qayiqda Atlankita okeanini suzib o'tganda okeanning hatto o'rta qismida 1400 mln masafada suv yuzasida neft pardasini ko'rganini aytadi. Neft o'tkir qid tarqatib yotardi.

3. Afina Akropoli keyingi o'n yilliklarda oldingi ming yildagiga qaraganda ko'prok buzildi. Bu gal Misrdan Londonga yuz yil oldin olib kelingan malika Kleopatra yodgorligiga ham tegishlidir. Keln, Soberi keyingi o'n yilliklarda qurilgandan keyingi 100 yilliklardagiga qaraganda ko'proq zararlandi. va xokazolar.

Uyga vazifa: Referat yozish.

## **XULOSA.**

O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim tug'risidagi qonun» va «Davlat ta'lim standartlari» Respublikamizning ravnaqiga, kelajagiga, jahon bilan birlasha olishiga xizmat qilmoq kerak. Hozirgi kunga kelib, bu o'z natijasini amalda namoyon etmoqda. Barcha sohalar qatori ta'lim sohasiga yangi pedagogii texnologiyani kiritish kerakli natijalar berishini ko'rish mumkin. Ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyani maktablarda ham joriy etish maqsadga muvofikdir. T T Tu ni amalga oshirish uchun har bir fanni yangicha uslubda o'tish, yangiliklar kiritish, mavzularni o'tishning xilma- xilligini tashkil etish kerak va bu hozirgi kunda amalga oshirmokda.

Geografiya o'qitishda esa bugunigi kunga kelib, maktab dasturi o'quvchilarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni ham o'z zimmasiga oladi.

Bu esa geografiya o'qituvchisidan pedagogik faoliyatdagi yutuq kamchiliklarni tahlil qilib, umumlashtira bilishni, boshka o'qituvchilarni

tajribasini umumlashtirish va samarali shakllar, me'todlardan o'z ishida okilona foydalanishni talab qiladi. Maktab geografiyasida ayniqsa, bilimlarni didaktik jihatdan tahlil qilish orqali o'quv predmetini yaratish, o'quv materialini mantiqan tahlil qilish, o'quv materialidagi geogarfik, iqtisodiy, ekologik tushunchalarning tahlili shular jumlasiga kiradi. Shuningdek o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchi faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik masalalari, daryo maqsadi bilan mazmuni, ta'lim metodlari bilan ta'lim vositalari, bilimlarni egallash jarayoni bilan tarbiya orasidagi aloqalarni tadqiq qilish nazariya metodlari negizini tashkil qiladi. hozirgi kunda geografiya o'qituvchilari o'z ishlariga tanqidiy yondashishi orqali ham darsning samaradorligini oshirmoqdalar. Shuning uchun bo'lajak geografiya o'qituvchisi sifatida men ushbu malakaviy bitiruv ishimni yozish jarayonida, maktabda geografiya fanining samarali usullarini yaratishda tarqatma materiallarning o'zni va ahamiyatini ochib berishga imkon qadar xarakat qildim. Tarqatma materiallar zamonaviy daryo shakllaridan biri hisoblanib, daryo jarayonida bu materiallarning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham malakaviy bitiruv ishimda tarqatma materiallarning ahamiyati bilan bir qatorda, ularning fanda tutgan o'zni, turlari va bu turlarning daryo jarayonida foydalanish usullari haqida batafsil yoritishga e'tiborimni qaratdim.

Daryo jarayonida bir usulni qat'iy belgilab, shu usulda daryo o'qtishni tavsiya etish biroz noto'g'ri bular, chunki har bir darsning samarali bo'lishi o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi. Men ham har bir sinfning alohida darslarini tahlil qilib, bu darslarda tarqatma materiallardan qanday foydalanish mumkinligini ochib berib, bu usullardan foydalanganda darslar yanada qiziqarli, samarali bo'lishi va albatta o'z natijasini kursata oladi degan umiddaman. Chunki daryo usullarini tarqatma materiallar yordamida qo'llab, darsni sodda, tushunarli, bilim va kunikmalarga boy tarzda o'tish mumkinligini ochib berishga harakat qildim.

Shuningdek ishimda, ya'ni daryo taxlillarimda seminar darslari, sinov darslari kabi usullardan keng foydalandim va tarkatmalarni kartochkalar, testlar, diagramma va jadvallar, ezuvsiz xaritalar, krasvord, chaynvordlar tarzida dare jarayoniga tadbiiq etishni lozim deb topdim.

Pedagogik instiutini bitiruvchi talabalar kelgusi ish faoliyatlarida ushbu malakaviy birituv ishi natijalariga murojat qilishsa foydadan xoli bo'lmas edi degan fikrdaman.

## KARTA, DIAGRAMMA, DARSLIK VA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISH

O'qituvchi o'z mehnatining natijasiga darsda ta'limning ko'rgazmali vositalardan foydalanib erishishi mumkin. Bu vositalar darsni yaxshiroq, to'liqroq o'quvchilar tushunib etishida yordam beradi. Akademik Pavlovning isbotiga ko'ra inson so'z orqali 2 sek.da o'rganilayotgan jismni o'zlashtirilib olishi mumkin ekan. Shunday ekan, o'qituvchi darsda ko'rgazmali quroldan foydalanishi ham natijaga erishishning bir ko'rinishidir. Ko'rgazmali vositalarning ahamiyati qaqida "Suratni sinfga olib kirsang, soqov ham tilga kiradi"- deb aytilgan so'zning o'zi fikrimizning dalilidir. Ta'limning ko'rgazmali vositalarini 4 ta asosiy guruhga bo'lish mumkin.


### 1. BOSMA KO'RGAZMALI VOSITALAR

Bularga kartalar, sxemalar, jadvallar, applekatsiyalar misol bo'ladi.

#### KARTA GEOGRAFIYANING TILI

«Janubiy Amerika materigi» mavzusini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda bizda Duyoning siyosiy va tabiiy kartalari hamda Markaziy Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy kartalari kerak bo'ladi. O'quvchilarga Duyoning siyosiy va tabiiy kartalari hamda Markaziy Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy kartalarining tuzilishi, taraqqiyot tarixi, qachon mustaqillikka erishganligi, tabiiy resruslari, yirik konlari, daryo va transport yo'llarini aloqida ko'rsatish ularning kartaga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi.

Sxemalar. Bu mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda Duyoning siyosiy va tabiiy kartalari hamda Markaziy Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy kartalaridagi xamda biror-bir respublikabing chizmasini o'quvchilarga chizib ko'rsatsak, ularning tassovurlari, bilimlari ancha shakllanadi.



Jadvallar. Geografiyada muhim ahamiyatga ega. Jadvallar asosan statistik bilimlar asosida tuziladi. Indeks, koeffitsient va boshqalarni bilish turli va boy mazmunli jadvallar tuzish mumkin. Uni tuzishning muhim sharti u asosan eng yangi ma'lumotlar asosida tuziladi.

Diagrammalar. Tabiiy va iqtisodiy geografiyada muhim ahamiyatga ega. Diagrammalar orqali mustaqil davlatlarning tabiiy resurslarining zaxirasi ulushini, aholining milliy tarkibi, sanoat yoki qishloq xo'jaligi sohalarining ulushini ifodalash mumkin.

## 2. TA'LIMNING EKTRANLI VOSITALARI.

Bunga ekranli statistik vositalar va ekranli vositalar misol bo'la oladi. Bu vositalar ham darsning qiziharli, muvoffaqiyatli chiqishiga imkon byeradi. Duyoning siyosiy va tabiiy kartalari hamda Markaziy Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy kartalaridagi xamda biror-bir respublikabing, davlatning siyosiy kartasini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda uning qaerda joylashganligini va kim bilan chegaradoshligini, qaysi materikda joylashganligining filmlarni imkonicha vaqt topib o'quvchilarga ko'rsatish ham samarali natija byeradi.

## 3. TA'LIMNING OVOZLI VOSITALARI.

1. Gramplastinkalar

2. Magnitafon yozuvlari

3. Kompyutyerlar

hozirgi vaqtda o'quvchilarning informatsiyalarini qabul qilish manbalari ko'payib bormoqda.

Radio va televizion axborot vositalari, kompyutyer texnikasi, intyernet tarmoqlari orqali masofali ta'lim berish, bunda mavzu o'rganilayotganda o'quvchilardan ular ko'rgan, eshitgan ma'lumotlari so'raladi. O'quvchilarning darslik bilan ishlashi geografiya ta'limi jarayonida bilim manbai bo'lib xizmat qiladi. Darslik bilan ishlash o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar qajmi va me'yorini belgilaydi. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan havaslarini oshiradi. Xar bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana olishga o'rgatish lozim.

Geografiya o'qituvchisi darsga ko'rgazmali qurollarsiz kirishi xech qanday samara byermaydi. Shuning uchun har bir yangi mavzu o'tilishidan oldin o'qituvchi o'sha mavzuga tegishli ko'rgazma vositalarini tayyorlab qo'yishi kerak. Zyero dars yutug' o'qituvchining yutug'i, dars kamchiligi uning kamchiligidir.

## MAVZUNI MUSTAHKAMLASH VA UYGA VAZIFA BERISH

Mavzuni mustahkamlash, uyga vazifa, o'quvchilarning shaxsiy hususiyatlarini o'rganishga yordam byeradi. Darsda o'rganilgan mavzu mustahkamlab borilmasa o'rganilgan bilim o'quvchilar xotirasidan ko'tarilib ketadi. Mustahkamlash o'quvchi nutqini o'stiradi va bir qancha yo'l olib boriladi.

Dastlabki mustahkamlash. Bunda odatda yangi material o'rganib bo'lingach dars oxirida o'tkaziladi. Mustahkamlash yangi matyerialni o'rganish bilan birga qo'shib olib borilishi mumkin. Dastlabki mustahkamlash, darslik va karta bilan ishlash, daftarga yozish, yozuvsiz kartani to'ldirish kabi o'quvchilarning amaliy va mustaqil ishlari tarzida olib boriladi. Mavzu bunday usulda mustahkamlanganda yangi o'rganilgan mavzuni ilgari o'rganilgan mavzuni taqoslash yaxshi natija byeradi. Mustahkamlashning yana bir yo'li takrorlash. Takrorlash darsning hamma qismida olib borish mumkin. «Janubiy Amerika materigi» mavzusini o'rgatishda o'quvchilarga muhim ahamiyatga ega. Har bir mavzu tushintirilib bo'lgach dars yakunlanishi arafasida mavzuni mustahkamlab olish kerak. Bu usul bilan o'quvchilarning dars davomida o'zlashtirgan bilimlari sinaladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T. "O'zbekiston" 1995 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. "O'zbekiston" 1999 yil.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2008 yil.
4. Bogdanov O.P. O'zbekiston hayvonlari. T.: O'qituvchi, 1983-320 b.
5. Nartov N.A. Geopolitika, M., Izdatel'stvo politicheskoy literaturi 2002.
6. Rafiqov A.A., Azimov Sh. Amaliy geografiya. T.: O'qituvchi, 2000.
7. G'ulomov P., Vahobov H., Hasanov A. Turkiston tabiiy geografiyasi. T.:

8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti: 2-j. -2001; 3,4-j. – 2002; 5-j. – 2003
9. Asanov G., Nabixonov M., Safarov, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi T. "O'zbekiston" 1997 yil
10. Babanskiy Hozirgi zamon ta'limi maktablarida o'qitish metodlari T. "O'qituvchi" 1990 yil
11. Vetshteyn L.M. Ya Navaiyskiy sementchik. T. "FAN" 1999 yil
12. Musaev P. O'zbekiston geografiyasini o'qitish T. "O'qituvchi" 1979 yil
13. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar. T. "O'qituvchi" 1986 yil
14. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar T. "O'qituvchi" 1990 yil
15. Qurbonniyozov R. O'zbekiston geografiyasi T. "O'qituvchi" 1997 yil
16. O'zbekiston, viloyatlar, qoraqolpog'iston T. "FAN". 1995 yil
17. O'zbekiston respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi T. "O'zbekiston" 1996 yil
18. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi T. 1999 yil
19. Do'stlik bayroqi. Marvarid shahar maqolasi 1998 yil. 29 avgust.
20. Geografik atlaslar 5-6-7-8-9 sinflar.